



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYAVAZIRLIGIDA
HISOBGA OLINDI
HISOB RAQAMI: 387
2026 - yil 16 - Fevral

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
HUZURIDAGI SANITARIYA-EPIDEMIOLOGIYA OSOYISHTALIGI VA
JAMOAT SALOMATLIGI QO'MITASINING QARORI

**Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda
oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga doir sanitariya
qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son
SanQvaN) o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-iyuldagi PF-111-son "Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni va 2023-yil 2-iyundagi PQ-181-son "O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish jarayonini jadallashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasi qaror qiladi:

1. Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) (hisob raqami 366, 2025-yil 8-avgust) ilovaga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

2. "Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini (0098-25-son SanQvaN) tasdiqlash to'g'risida"gi qarorning (hisob raqami 366, 2025-yil 8-avgust) amal qilishi 2028-yil 10-fevralga qadar to'xtatib turilsin.

3. Mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va Savdo-sanoat palatasi bilan kelishilgan.

4. Ushbu qaror rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Rais
30-Yanvar 2026-yil
16 son



YUSUPALIYEV BAXODIR
KAXRAMANOVICH

Kelishildi:

Vazir
29-Yanvar 2026-yil



ABDURAXMONOV IBROXIM
YULCHIYEVICH

Tadbirkorlarning huquqlarini
himoya qilish bo'yicha vakil
27-Yanvar 2026-yil



BURIYEV ABDUMANNOP
ABDURAXMATOVICH

Rais
22-Yanvar 2026-yil



VAXABOV DAVRON
ABDUJALALOVICH

**Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda
oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga doir sanitariya
qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son
SanQvaN) kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. Muqaddimada:

oltinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda himoya va qoplama materiallari sifatida qo'llaniladigan, oziq-ovqat mahsulotlari tarkibiga kirmaydigan va iste'mol qilish uchun mo'ljallanmagan moddalar;”;

o'n uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“qayta ishlashda qo'llaniladigan yordamchi moddalar;”;

quyidagi mazmundagi o'n beshinchi va o'n oltinchi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“oziq-ovqat mahsulotlariga qo'shiladigan ozuqaviy moddalar; :

oziq-ovqat aromatizatorlari, fermentlar;”;

o'n beshinchi xatboshi tegishli ravishda o'n yettinchi xatboshi deb hisoblansin.

2. 1-bandda:

to'rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oziq-ovqat aromatizatorlari – oziq-ovqat mahsulotlariga xushbo'y hid berish, ularning ta'mini o'zgartirish yoki kuchaytirish uchun qo'shiladigan xushbo'ylantiruvchi moddalar, bundan ta'mni kuchaytiruvchi moddalarning funksional sinfiga kiritilgan oziq-ovqat qo'shimchalari, shuningdek shakar, sirka

yoki osh tuzi kabi faqat shirin, nordon yoki sho‘r ta‘mga ega bo‘lgan moddalar mustasno;”;

quyidagi mazmundagi beshinchi – yettinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“ozuqaviy moddalar – ovqatlanish maqsadida oziq-ovqat mahsulotlariga qo‘shiladigan vitaminlar, minerallar va boshqa moddalar, shuningdek fiziologik maqsadlar uchun qo‘shiladigan moddalar;

preparat – saqlash, suyultirish yoki eritish jarayonlarini osonlashtirish uchun preparatga boshqa moddalar (oziq-ovqat qo‘shimchalari va/yoki ingridiyentlar) qo‘shilgan bir yoki bir nechta oziq-ovqat qo‘shimchalari, fermentlar va/yoki ozuqaviy moddalardan iborat aralashmalar;

shakar qo‘shilmagan mahsulotlar – tarkibida mono- yoki disaxaridlar bo‘lmagan hamda shirinlashtirish maqsadida foydalaniladigan mahsulotlar;”;

beshinchi – o‘n ikkinchi xatboshilar tegishli ravishda sakkizinchi – o‘n beshinchi xatboshilar deb hisoblansin.

3. 3-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3. Oziq-ovqat qo‘shimchalari iste‘molchilarning salomatligiga xavf tug‘dirmasligi, oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llanilishi uchun yaroqli bo‘lishi, shuningdek mazkur sanitariya qoidalarining 2 – 6-ilovalarini inobatga olgan holda qo‘llanilishi lozim.”.

4. 5-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“5. Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, tayyorlash, qadoqlash, tashish yoki saqlash jarayonlariga ko‘maklashish maqsadlarida oziq-ovqat qo‘shimchasida sifatsiz xomashyo qo‘llanilishiga (nomaqbul harakatlar amalga oshirilishiga) yo‘l qo‘yilmaydi.”.

5. 11-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“11. Oziq-ovqat qo‘shimchalaridan foydalanish shartlari mazkur sanitariya qoidalarining 2-ilovasiga muvofiq bo‘lishi kerak, bunda oziq-ovqat mahsulotlari toifalari va ularning raqamlanishi oziq-ovqat qo‘shimchalaridan foydalanish shartlari uchun qo‘llaniladi.”.

6. 14-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“Oziq-ovqat qo‘shimchasida REMD ko‘rsatilmagan bo‘lsa, yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi.”;

quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“Oziq-ovqat qo‘shimchasining yorlig‘ida REMD yoki yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili ko‘rsatilmagan holda ushbu oziq-ovqat qo‘shimchasidan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.”.

7. 19-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“19. Quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari toifalariga oziq-ovqat qo‘shimchalarini qo‘shishga yo‘l qo‘yilmaydi (bundan ushbu sanitariya qoidalarining 2-ilovasida ko‘rsatilgan shartlar mustasno):”;

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi va beshinchi xatboshilar bilan to‘ldirilsin:

“qayta ishlangan don mahsulotlari;

maxsus tibbiy maqsadlar uchun parhez (davolash) oziq-ovqat mahsulotlari.”.

8. 21-bandning birinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“21. Oziq-ovqat qo‘shimchalari ushbu sanitariya qoidalarining 4-ilovasida keltirilgan mazkur qo‘shimchalarning funksional sinflari va tegishli texnologik tavsiflarga muvofiq quyidagi maqsadlarni amalga oshirish uchun foydalanilishi lozim:”.

9. 28-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“28. Oziq-ovqat qo‘shimchalarini yorliq bilan tamg‘alashda ushbu yorliq oson ko‘rinadigan, aniq o‘qiladigan va o‘chmaydigan bo‘lishi, yolg‘on yoki chalg‘ituvchi ma’lumotlarni o‘z ichiga olmasligi kerak.”.

10. 31-bandda:

ikkinchi xatboshidagi “indeks raqamini” degan soʻzlar “tartib raqamini” degan soʻzlar bilan almashtirilsin;

yettinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“oziq-ovqat qoʻshimchasini qoʻllash boʻyicha yoʻriqnoma va undan foydalanish boʻyicha koʻrsatmalar;”.

11. Quyidagi mazmundagi 38¹-band bilan toʻldirilsin:

“38¹. Oziq-ovqat mahsulotlarini tamgʻalashda va ularga bezak berishda qoʻllaniladigan oziq-ovqat boʻyoqlari ushbu sanitariya qoidalarining 1 va 2-ilovalariga muvofiq boʻlishi lozim.”.

12. 1 –3 va 5-ilovalar mazkur oʻzgartirish va qoʻshimchalarning 1 – 4-ilovalariga muvofiq tahrirda bayon etilsin.

Oziq-ovqat qoʻshimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qoʻshimchalarini tamgʻalashga doir sanitariya qoidolari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) kiritilayotgan oʻzgartirish va qoʻshimchalarga 1-ILOVA

“Oziq-ovqat qoʻshimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qoʻshimchalarini tamgʻalashga doir sanitariya qoidolari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) 1-ILOVA

Oziq-ovqat qoʻshimchalarining ROʻYXATI

1-jadval Ruxsat etilgan boʻyoqlar roʻyxati

E-raqam	Nomi
E 100	Kurkumin
E 101	Riboflavinlar
E 102	Tartrazin
E 104	Xinolin sariq
E 110	“Quyosh botishi” sariq FCF
E 120	Karminlar, karmin kislotasi, koxinil

E 122	Azorubin, Karmuazin
E 123	Amarant
E 124	Ponso 4R, qizil 4R
E 127	Eritrozin
E 129	Jozibador qizil AC
E 131	Patentli Moviy V
E 132	Indigokarmin, Indigotin
E 133	Yarqiroq ko‘k FCF, brilliant ko‘ki FCF
E 140	Xlorofillar va xlorofillinlar
E 141	Xlorofill va xlorofillinning mis komplekslari
E 142	Yashil S
E 150a	Oddiy shakarli koler I*
E 150b	“Ishqor-sulfitli” texnologiya yo‘li bilan olingan shakarli koler II*
E150c	“Ammiakli” texnologiya yo‘li bilan olingan shakarli koler III*
E150d	“Ammiak-sulfitli” texnologiya yo‘li bilan olingan shakarli koler IV*
E 151	Yaltiroq qora PN, brilliant qora PN
E 153	O‘simlik uglerod
E 155	Braun XT
E 160a	Karotinlar
E 160b (i)	Annatto biksin
E 160b(ii)	Annatto norbiksin
E 160c	Qizil qalampir ekstrakti, kapsantin, kapsorubin
E 160d	Likopin
E160e	beta-apo-8’-Karotin aldegid
E 161b	Lutein
E 161g	Kantaksantin (**)
E 162	Qizil lavlagi, betanin
E 163	Antotsianlar

E 170	Kalsiy karbonati
E 171	Titan dioksidi (***)
E 172	Temir oksidlari va gidroksidlari
E 173	Alyuminiy
E 174	Kumush
E 175	Oltin
E 180	Litolrubin BK

Izoh:

* - “Shakarli koler” atamasi rang berish uchun mo‘ljallangan to‘qroq yoki ochroq jigarrang tusli mahsulotlarni anglatadi. Bu atama shakarni qizdirish yo‘li bilan olinadigan va oziq-ovqat mahsulotlarini (masalan, qandolat mahsulotlari, un mahsulotlari, spirtli ichimliklar) xushbo‘ylashtirish uchun ishlatiladigan shakarli mahsulotlarga nisbatan qo‘llanilmaydi;

** - Kantaksantindan mazkur sanitariya qoidalarining 3-ilovasida keltirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining toifalarida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur jadvalga kiritilish sababi maxsus tibbiy oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llaniladi;

*** - Titan dioksididan boshqa ilovalarda sanab o‘tilgan oziq-ovqat toifalarida foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi. Mazkur jadvalga kiritilish sababi maxsus tibbiy oziq-ovqat mahsulotlarida qo‘llaniladi.

2-jadval Ruxsat etilgan shirinlashtiruvchilar ro‘yxati

E-raqam	Nomi
E 420	Sorbitollar
E 421	Mannit
E 950	Kaliy atsesulfami, Atsesulfam K
E 951	Aspartam
E 952	Siklamat kislotasi va uning natriy hamda kalsiy tuzlari
E 953	Izomalt
E 954	Saxarinlar

E 955	Sukraloza
E 957	Taumatın
E 959	Neogesperidin digidroxalkon (Neogesperidin DC)
E 960a	Steviyadan olingan steviolglikozidlar
E 960b	Fermentlash yo‘li bilan olingan stevioglikozidlar
E 960c	Enzim o‘zgartirish yo‘li bilan olingan stevioglikozidlar
E960d	Glikozillangan steviolglikozidlar
E 961	Neotam
E 962	Aspartam-atsesulfam tuzi
E 964	Poliglitsitol sirop
E 965	Maltitlar
E 966	Laktit
E 967	Ksilit
E 968	Eritrit
E 969	Advantam

3-jadval Ruxsat etilgan qo‘shimchalar ro‘yxati (bo‘yoqlar va shirinlashtirgichlar bundan mustasno)

E-raqami	Nomi
E 170	Kalsiy karbonat
E 172	Temir oksidi va gidroksidlari
E 200	Sorbin kislotasi
E 202	Kaliy sorbati
E 210	Benzoy kislotasi*
E 211	Natriy benzoati*
E 212	Kaliy benzoati*
E 213	Kalsiy benzoati*
E 214	Para-gidroksibenzoy kislotasining etil efiri

E 215	Para-gidroksibenzoy kislotasi etil efirining natriy tuzi
E 218	Para-gidroksibenzoy kislotasining metil efiri
E 219	Para-gidroksibenzoy kislotasi metil efirining natriy tuzi
E 220	Oltinugurt dioksidi
E 221	Natriy sulfiti
E 222	Natriy gidrosulfiti
E 223	Natriy pirosulfiti
E 224	Kaliy pirosulfiti
E 226	Kalsiy sulfit
E 227	Kalsiy gidrosulfit
E 228	Kaliy gidrosulfit
E 234	Nizin
E 235	Natamitsin, Pimaritsin
E 239	Geksametilentetramin
E 242	Dimetildikarbonat
E 243	Etillauril arginat
E 246	Glikolipidlar
E 249	Kaliy nitriti
E 250	Natriy nitriti
E 251	Natriy nitrati
E 252	Kaliy nitrati
E 260	Sirka kislotasi
E 261	Kaliy atsetatlari*
E 262	Natriy atsetatlari
E 263	Kalsiy atsetati
E 267	Buferlangan sirka
E 270	Sut kislotasi
E 280	Propion kislotasi

E 281	Natriy propionati
E 282	Kalsiy propionati
E 283	Kaliy propionati
E 284	Borat kislotasi
E 285	Natriy tetraborat (boraks)
E 290	Uglerod dioksidi
E 296	Olma kislotasi
E 297	Fumar kislotasi
E 300	Askorbin kislotasi
E 301	Natriy askorbati
E 302	Kalsiy askorbati
E 304	Askorbin kislotasining yog‘ kislotalari efirlari
E 306	Tokoferollar, aralashma konsentrati
E 307	Alfa-tokoferol
E 308	Gamma-tokoferol
E 309	Delta-tokoferol
E 310	Propilgallat
E 315	Izoaskorbin (eritrob) kislotasi
E 316	Natriy izoaskorbat
E 319	Tret-butildihydroxinon (TBHQ)
E 320	Butildihidroksianizol
E 321	Butildihidroksitoluol
E 322	Letsitinlar
E 322a	Suli letsitini
E 325	Natriy laktati
E 326	Kaliy laktati
E 327	Kalsiy laktati
E 330	Limon kislotasi

E 331	Natriy sitratlari
E 332	Kaliy sitratlari
E 333	Kalsiy sitratlari
E 334	Vino kislotasi (L(+)-)
E 335	Natriy tartratlari
E 336	Kaliy tartratlari
E 337	Kaliy-natriy tartrati
E 338	Orto-fosfor kislotasi
E 339	Natriy fosfatlari
E 340	Kaliy fosfatlari
E 341	Kalsiy fosfatlari
E 343	Magniy fosfatlari
E 345(i)	Trimagniy disitrat
E 350	Natriy malatlari
E 351	Kaliy malati
E 352	Kalsiy malatlari
E 353	Meta-vino kislotasi
E 354	Kalsiy tartrati
E 355	Adipin kislotasi
E 356	Natriy adipinati
E 357	Kaliy adipinati
E 363	Qahrabo kislotasi
E 380	Triammoniy sitrat
E 385	Kalsiy-natriy etilendiamintetraasetat (Kalsiy dinatriy EDTA)
E 392	Rozmarin ekstraktlari
E 400	Algin kislotasi
E 401	Natriy alginati
E 402	Kaliy alginati

E 403	Ammoniy alginati
E 404	Kalsiy alginati
E 405	Propilenglikolalginat
E 406	Agar
E 407a	Euxema suvo‘tidan olingan karraginan
E 407	Karraginan
E 410	Xarnub daraxti yelimi
E 412	Guar yelimi
E 413	Tragakant yelimi
E 414	Gummiarabik (akatsiya yelimi)
E 415	Ksantan yelimi
E 416	Karaya yelimi
E 417	Tara yelimi
E 418	Gellan yelimi
E 422	Glitserin
E 423	Oktenilsuksinat kislotsi bilan modifikatsiyalangan gummiarabik
E 425	Konjak
E 426	Soya gemitsellyulozasi
E 427	Kassiya yelimi
E 431	Polioksietilen (40) stearat
E 432	Polioksietilensorbitan monolaurat (polioksietilen (20)) sorbat
E 433	Polioksietilen sorbitan monooleat (polisorbat 80)
E 434	Polioksietilen sorbitan monopalmitat (polisorbat 40)
E 435	Polioksietilen sorbitan monostearat (polisorbat 60)
E 436	Polioksietilen sorbitan tristearat (polisorbat 65)
E 440	Pektinlar
E 442	Ammoniy fosfatidlari
E 444	Saxaroza atsetat izobutirat

E 445	Glitserin va smola kislotalarining efirlari
E 450	Difosfatlar (pirofosfatlar)
E 451	Trifosfatlar
E 452	Polifosfatlar
E 456	Kaliy poliaspartati
E 459	Beta-siklodekstrin
E 460	Sellyuloza
E 461	Metilsellyuloza
E 462	Etilsellyuloza
E 463	Gidroksipropilsellyuloza
E 463a	Kam oʻzgartirilgan gidroksipropilsellyuloza (L-HPC)
E 464	Gidroksipropilmetilsellyuloza
E 465	Metiletilsellyuloza
E 466	Natriy karboksimetilsellyuloza
E 468	Tikilgan natriy karboksimetilsellyuloza (kroskarmelloza, kross-bogʻlangan natriy karboksimetilsellyuloza tuzi)
E 469	Fermentativ gidrolizlangan karboksimetilsellyuloza
E 470a	Yogʻ kislotalarining natriy, kaliy va kalsiy tuzlari
E 470b	Yogʻ kislotalarining magniy tuzlari
E 471	Yogʻ kislotalarining mono- va diglitseridlari
E 472a	Yogʻ kislotalari va sirka kislotasi mono- va diglitseridlarining efirlari
E 472b	Yogʻ kislotalari va sut kislotasi mono- va diglitseridlarining efirlari
E 472c	Yogʻ kislotalari va limon kislotasi mono- va diglitseridlarining efirlari
E 472d	Yogʻ kislotalari va vino kislotasi mono- va diglitseridlarining efirlari
E 472e	Yogʻ kislotalari mono- va diglitseridlarining mono- va diatsetil vino kislotali efirlari
E 472f	Yogʻ kislotalarining mono- va diglitseridlari bilan sirka va vino kislotalarining aralash efirlari
E 473	Saxaroza va yogʻ kislotalarining efirlari
E 474	Shakar glitseridlari

E 475	Yogʻ kislotalarining poliglitserin efirlari
E 476	Poliglitsерol polirisinoleat
E 477	Propan-1,2-diol yogʻ kislotalarining efirlari
E 479b	Yogʻ kislotalarining mono- va diglitsерidlari bilan oʻzaro taʼsirlashuvchi termik oksidlangan soya moyi
E 481	Natriy stearoil-2-laktilati
E 482	Kalsiy stearoil-2-laktilati
E 483	Stearil tartrati
E 491	Sorbitan monostearati
E 492	Sorbitan tristearati
E 493	Sorbitan monolaurat
E 494	Sorbitan monooleat
E 495	Sorbitan monopalmitat
E 499	Stigmasterin bilan boyitilgan fitosterinlar
E500	Natriy karbonati
E 501	Kaliy karbonati
E 503	Ammoniy karbonati
E 504	Magniy karbonatlari
E 507	Xlorid kislotasi
E 508	Kaliy xloridi
E 509	Kalsiy xloridi
E 511	Magniy xloridi
E 512	Qalay xloridi
E 513	Sulfat kislota
E 514	Natriy sulfatlari
E 515	Kaliy sulfatlari
E 516	Kalsiy sulfati
E 517	Ammoniy sulfati

E 520	Alyuminiy sulfati
E 521	Alyuminiy-natriy sulfati
E 522	Alyuminiy va kaliy sulfati
E 523	Alyuminiy-ammoniy sulfati
E 524	Natriy gidroksidi
E 525	Kaliy gidroksidi
E 526	Kalsiy gidroksidi
E 527	Ammoniy gidroksidi
E 528	Magniy gidroksidi
E 529	Kalsiy oksidi
E 530	Magniy oksidi
E 534	Temir tartrati
E 535	Natriy ferrotsianid
E 536	Kaliy ferrotsianid
E 538	Kalsiy ferrotsianid
E 541	Kislotali natriy alyumofosfat
E 551	Kremniy dioksidi
E 552	Kalsiy silikat
E 553a	Magniy silikat
E 553b	Talk
E 554	Natriy alyumosilikati
E 555	Kaliy alyumosilikati
E 556	Kalsiy alyumosilikat
E 558	Bentonit
E 559	Alyuminiy silikat, alyumosilikat (kaolin)
E 570	Yogʻ kislotalari
E 574	Glyukon kislotasi
E 575	Glyukono-delta-lakton

E 576	Natriy glyukonati
E 577	Kaliy glyukonati
E 578	Kalsiy glyukonati
E 579	Temir glyukonati
E 585	Temir laktati
E 586	4-geksilrezorsin
E 620	Glutamin kislotasi
E 621	1-almashingan natriy glutamati
E 622	1-o‘rinli kaliy glutamati
E 623	Kalsiy diglutamat
E 624	1-o‘rinli ammoniy glutamat
E 625	Magniy diglutamat
E 626	Guanil kislotasi
E 627	2-o‘rinli natriy guanilat
E 628	2-o‘rinli kaliy guanilat
E 629	Kalsiy guanilati
E 630	Inozin kislotasi
E 631	2-o‘rinli natriy inozinat
E 632	2-o‘rinli kaliy inozinat
E 633	Kalsiy inozinati
E 634	5’-Kalsiy ribonukleotidlari
E 635	2-o‘rinli 5’-natriy ribonukleotidlari
E 640	Glitsin va uning natriy tuzi
E 641	L-leysin
E 650	Rux atsetati
E 900	Polidimetilsiloksan
E 901	Asalari mumi, oq va sariq
E 902	Kandelilla mumi

E 903	Karnauba mumi
E 904	Shellak
E 905	Mikrokristall mum
E 907	Gidrogenlangan poli-1-desen
E 914	Oksidlangan polietilen mumi
E 920	L-sistein
E 927b	Karbamid (mochevina)
E 938	Argon
E 939	Geliy
E 941	Azot
E 942	Azot oksidi
E 943a	Butan
E 943b	Izobutan
E 944	Propan
E 948	Kislrod
E 949	Vodorod
E 999	Kvillay ekstrakti
E 1103	Invertaza
E 1105	Lizotsim
E 1200	Polidekstroza
E 1201	Polivinilpirrolidon
E 1202	Polivinilpolipirrolidon
E 1203	Polivinil spirti (PVA)
E 1204	Pullulan
E 1205	Asosiy metakrilat sopolimeri
E 1206	Neytral metakrilat sopolimeri
E 1207	Anion metakrilat sopolimeri
E 1208	Polivinilpirrolidon va vinilatsetat sopolimeri

E 1209	Polivinil spirt-polietilen glikol-transplant sopolimeri
E 1210	Karboksipolimetilen; karbomer gomopolimeri
E 1404	Oksidlangan kraxmal
E 1410	Monokraxmalfosfat
E 1412	Dikraxmalfosfat
E 1413	Fosfatlangan dikraxmalfosfat
E 1414	Atsetillangan dikraxmalfosfat
E 1420	Atsetillangan kraxmal
E 1422	Atsetillangan dikraxmalamidat
E 1440	Oksipropillangan kraxmal
E 1442	Oksipropillangan dikraxmalfosfat
E 1450	Kraxmal va oktenilantar kislotaning natriy tuzi efiri
E 1451	Atsetillangan oksidlangan kraxmal
E 1452	Kraxmal va oktenilantar kislotaning alyuminiy tuzi efiri
E 1505	Trietilsitrat
E 1517	Diatsetin (glitserildiatsetat)
E 1518	Glitseriltriatsat (triatsat)
E 1519	Benzil spirti
E 1520	Propan-1,2-diol (propilenglikol)
E 1521	Polietilenglikol

Izoh:

* Benzoy kislotasi tegishli ishlab chiqarish amaliyotiga rioya qilingan holda fermentatsiya jarayoni natijasida olingan ayrim biyog'igan mahsulotlarda tabiiy ravishda mavjud bo'lishi mumkin. ”.

Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga 2-ILOVA

“Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat
qo‘shimchalarini tamg‘alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena
normativlariga (0098-25-son SanQvaN) 2-ILOVA

Oziq-ovqat qo‘shimchalaridan foydalanish shartlari

1-bob. Oziq-ovqat mahsulotlarining toifalarida oziq-ovqat
qo‘shimchalaridan individual foydalanish shartlari

1-jadval Bo‘yoqlardan foydalanish shartlari

E-raqam	Nomi	Foydalanish shartlari	Guruh
E 100	Kurkumin	1.7.5 Eritilgan pishloq. Aromatizatorli eritilgan pishloq uchun REMD=100 mg/kg bo‘lishi lozim. Ma’lumot: E 100, E 102, E 120, E 122, E 160e va E 161b qo‘shimchalarini alohida yoki birgalikda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo‘llaniladi. 2.1 Deyarli suvsiz yog‘lar va moylar (suvsiz sut yog‘i bundan mustasno). Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat moylar uchun qo‘llaniladi (yog‘siz moy bundan mustasno). 4.2.2 Sirka, yog‘ yoki tuzli suvda konservalangan meva va sabzavotlar: yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat sabzavotlar uchun (zaytunlar bundan mustasno); yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat qizil mevalardan tayyorlangan murabbo uchun qo‘llaniladi. 4.2.4.1 Meva va sabzavot konserva mahsulotlari, kompotlar bundan mustasno:	3

yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat dengiz suv o'tlari asosida tayyorlangan baliq uvildirig'i (ikra) o'rmini bosuvchi (analoglari) uchun;

yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat dengiz o'tlari asosida tayyorlangan baliq uvildirig'i (ikra) analoglari uchun qo'llaniladi.

4.2.5 Murabbo, jele, marmelad va shunga o'xshash mahsulotlar.

Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili murabbo, jele, marmelad va shunga o'xshash mahsulotlar uchun qo'llaniladi (kashtan pyuresi bundan mustasno).

4.2.5.3 Boshqa o'xshash meva yoki sabzavot pasta-mahsulotlari.

Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili meva yoki sabzavot pastalari va shunga o'xshash mahsulotlar uchun qo'llaniladi (qora olxo'ri ta'mli krem bundan mustasno).

4.2.6 Qayta ishlangan kartoshka mahsulotlari.

Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat quritilgan kartoshka granulalari va parrak bo'laklari uchun qo'llaniladi.

8.2 Go'shtli yarim tayyor mahsulotlar.

Faqat yangi (quritilmagan) chorizo tipidagi ziravorli kolbasalar (go'shtli yarim tayyor mahsulot turlari margeza, fresca salchicha, fresca butifarra, fresca longaniza va fresca chorizo) uchun REMD=20 mg/kg bo'lishi lozim.

8.3.1 Termik (issiqlik bilan) ishlov berilmagan qayta ishlangan go'sht mahsulotlarida:

kolbasalar uchun REMD=20 mg/kg bo'lishi lozim;

yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat termik (issiqlik bilan) ishlov berilmagan qayta ishlangan go'sht turi basturma uchun qo'llaniladi.

8.3.2 Termik (issiqlik bilan) ishlov berilgan qayta ishlangan go'sht.
Kolbasalar, pashtetlar va terrinlar uchun REMD=20 mg/kg bo'lishi lozim.

8.3.3 Go'shtni o'rash uchun ishlatiluvchi qobiqlar, qoplamalar va bezaklar.

Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat pasturmaning tashqi iste'mol qilinuvchi qobig'i uchun qo'llaniladi.

9.2 Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, shu jumladan qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar.

Baliq pastasi va qisqichbaqasimonlardan qilingan pasta uchun REMD=100.

Ma'lumot: E 100, E 102, E 120, E 122, E 142, E 151, E 160e, E 161b qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Oldindan pishirilgan qisqichbaqasimonlar uchun REMD=250.

Ma'lumot: E 100, 102, E 120, E 122, E 129, E 142, E 151, E 160e, E 161b qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Dudlangan baliq uchun REMD=100.

Ma'lumot: E 100, E 102, E 120, E 151, E 160e qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

14.2.7.1 Xushbo'ylantirilgan vinolar.

Faqat amerikano, achchiq vino turlari uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim.

Ma'lumot: amerikano vino turida E 100, E 101, E 102, E 104, E 120, E 122, E 123, E 124 va achchiq vino turida E 100, E 101, E 102, E

		104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi. 14.2.7.2 Vino asosidagi xushbo'ylantirilgan ichimliklar. Faqat achchiq gazlangan ichimliklar uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim. Ma'lumot: achchiq gazlangan ichimliklar uchun E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.	
E 101	Riboflavinlar	4.2.1 Quritilgan meva va sabzavotlar. Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat qizil mevalardan tayyorlangan murabbo uchun qo'llaniladi. 4.2.3 Konservalangan yoki idishlarga (banka yoki shisha idishlar) solingan meva va sabzavotlar. Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat qizil mevalardan tayyorlangan murabbo uchun qo'llaniladi. 8.3.1 Issiqlik bilan ishlov berilmagan qayta ishlangan go'sht. Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat issiqlik bilan ishlov berilmagan qayta ishlangan go'sht turi basturma uchun qo'llaniladi. 8.3.3 Go'sht o'rash uchun ishlatiluvchi iste'mol qilinuvchi qobiqlar, qoplamalar va bezaklar. Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat basturmaning tashqi iste'mol qilinuvchi qobig'i uchun qo'llaniladi. 9.2 Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, shu jumladan qisqichbaqasimonlar va molluskalar.	2

		Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili, faqat baliq pastasi va qisqichbaqasimonlardan qilingan pasta uchun qo'llaniladi. Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat oldindan pishirilgan mollyuskalar uchun qo'llaniladi. Yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili, faqat dudlangan baliq uchun qo'llaniladi. 14.2.7.1 Xushbo'ylantirilgan vinolar. Faqat amerikano achchiq vino turi uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim. Ma'lumot: amerikano vino turida E 100, E 101, 102, E 104, E 120, E 122, E 123 E 124 va achchiq vino turida E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi. 14.2.7.2 Vino asosidagi xushbo'ylantirilgan ichimliklar. Gazlangan ichimliklar uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim. Ma'lumot: gazlangan ichimliklarda E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.	
E 102	Tartrazin	1.7.5 Eritilgan pishloq. Ta'm beruvchi qo'shimchali eritilgan pishloq uchun REMD=100 mg/kg bo'lishi lozim; Ma'lumot: E 100, E 102, E 120, E 122, E 160e va E 161b qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi. 4.2.3 Konservalangan yoki idishlarga (banka yoki shisha idishlar) solingan meva va sabzavotlar.	3

Ishlov berilgan yasmiq va yashil no'xat (konservalangan) uchun REMD=100 mg/kg bo'lishi lozim.

9.2 Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, shu jumladan qisqichbaqasimonlar va molluskalar.

Faqat baliq pastasi va qisqichbaqasimonlardan qilingan pasta uchun REMD=100 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 100, E 102, E 120, E 122, E 142, E 151, E 160e, E 161b qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Faqat oldindan pishirilgan qisqichbaqasimonlar uchun REMD=250 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 100, 102, E 120, E 122, E 129, E 142, E 151, E 160e, E 161b qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Faqat dudlangan baliq uchun REMD=100 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 100, E 102, E 120, E 151, E 160e qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

14.2.7.1 Xushbo'ylantirilgan vinolar.

Faqat amerikano, achchiq vino turi uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim;

Ma'lumot: amerikano vino turida E 100, E 101, 102, E 104, E 120, E 122, E 123 E 124 va achchiq vino turida E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

14.2.7.2 Vino asosidagi xushbo'ylantirilgan ichimliklar.

Gazlangan vino asosidagi xushbo'ylantirilgan ichimliklarda uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim.

		Ma'lumot: gazlangan ichimliklarda E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda ishlatilganda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.	
E 104	Xinolin sarig'i	1.4 Xushbo'ylantirilgan qatiq mahsulotlari, shu jumladan termik (issiqlik bilan) ishlov berilgan mahsulotlar. Xushbo'ylantirilgan qatiq mahsulotlari, shu jumladan termik (issiqlik bilan) ishlov berilgan mahsulotlar uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 qo'shimchalari va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak. Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori uchun REMD=15 mg/kg bo'lishi lozim. 1.6.3 Boshqa turdagi qaymoqlar. Faqat xushbo'ylantirilgan qaymoqlar uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 4-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak. 1.7.3 Pishloqning iste'mol qilinadigan qattiq qoplamasi, po'stlog'i. Pishloqning iste'mol qilinadigan qattiq qoplamasi, po'stlog'i uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 104 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmasligi kerak. 4.2.4.1 Meva va sabzavot konserva mahsulotlari, (kompotlar bundan mustasno).	-

Faqat mevali xantal (mostarda di frutta) uchun REMD=30 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

5.4 Bezaklar, shakar qiyom va to'ldirmalar (nachinka):

oziq-ovqat qo'shimchalari uchun REMD=50 mg/kg bo'lishi lozim;

bezaklar, qoplamalar va souslar uchun REMD=50 mg/kg (to'ldirmalar (nachinka) bundan mustasno);

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3- guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori maksimal miqdor uchun REMD=300 mg/kg bo'lishi lozim.

5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni musaffo qiluvchi mayda konfetlar:

shakarga bosilgan meva va sabzavotlar uchun REMD=30 mg/kg bo'lishi lozim;

yong'oq yoki kakao asosidagi an'anaviy shakar bilan qoplangan, bodom yoki sharsimon shakldagi, uzunligi 2 sm dan ortiq bo'lgan, to'ylar, yig'ilishlar va boshqa tantanalarda taqdim etiladigan shirinliklar uchun REMD=30 mg/kg (shakarga bosilgan meva va sabzavotlar bundan mustasno);

yong'oq yoki kakao asosidagi an'anaviy shakar bilan qoplangan, bodom yoki sharsimon shakldagi, uzunligi 2 sm dan ortiq bo'lgan, to'ylar, yig'ilishlar va boshqa tantanalarda taqdim etiladigan shirinliklar uchun REMD=300 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3- guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori uchun REMD=70 mg/kg bo'lishi lozim.

Bu qoidadan istisno tariqasida faqat mayda (mikro) shirinliklar uchun REMD=40 mg/kg bo'lishi lozim.

5.3 Saqich.

Saqich uchun REMD=30 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=300 mg/kg bo'lishi lozim.

6.6 Quritilgan non ushoqlari (panirovka).

Quritilgan non ushoqlari (panirovka) uchun REMD=50 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

8.3.3 Go'sht o'rash uchun ishlatiluvchi iste'mol qilinuvchi qobiqlar, qoplamalar va bezaklar.

Bezak va qobiqlar uchun REMD=50 mg/kg (pasturmaning iste'mol qilinadigan tashqi qobig'i bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Go'sht o'rash uchun ishlatiluvchi iste'mol qilinuvchi qobig'i uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan E 120, koshenil, karmin kislotasi, karminlar uchun lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan boshqa hech qanday lak-bo'yoqlariga ruxsat etilmaydi.

9.3 Baliqlar uvildirig'i (ikra).

Baliqlar uvildirig'i (ikra) uchun REMD=200 mg/kg (osyotr baliqlari (Caviar) uvildirig'i (ikra) bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va

3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

12.2.2 Ziravorlar.

Ziravorlarning turlari karri kukuni, tanduri uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=120 mg/kg bo'lishi lozim.

12.4 Xantal.

Xantal uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

12.6 Souslar:

Tuzlangan (marinadlangan) sabzavotlardan tayyorlangan souslar, ziravorlar, chutni va pikuli uchun

REMD=20 mg/kg (tomat souslari bun bundan mustasno);

Ma'lumot: E 104 va E 110, shuningdek 3- guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmasligi kerak.

12.9 Oqsilli mahsulotlar (1.8-toifaga kiritilgan mahsulotlar bundan mustasno).

O'simlik oqsillari asosidagi go'sht va baliq analoglari uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

13.2 Maxsus tibbiy oziq-ovqat mahsulotlari.

Maxsus tibbiy parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

13.3 Vazn nazorat qilinuvchi parhez mahsulotlari.

Vazn nazorat qilinuvchi parhez mahsulotlarin uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.1.4 Xushbo'ylashtirilgan ichimliklar.

Xushbo'ylashtirilgan ichimliklar uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim. (shokoladli sut va solodli o'simlik mahsulotlari bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=15 mg/kg bo'lishi lozim.

14.2.3 Olma, nok yoki behi sharbatini bijg'itish natijasida olinadigan kuchsiz alkogolli yoki alkogolli ichimlik (Sidr va perri).

Sidr va perri uchun REMD=25 mg/l bo'lishi lozim (olma, nok yoki behi sharbatini bijg'itish natijasida olinadigan kuchsiz alkogolli yoki alkogolli ichimlik turlari bushe sidri, muzli sidr, muzli perri bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104 va E 110, shuningdek 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.4 Mevali vinolar va boshqa turdagi xomashyolardan tayyorlangan vinolar.

Mevali vinolar va boshqa turdagi xomashyolardan tayyorlangan vinolar uchun REMD=20 mg/l bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3- guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.6 Spirtli ichimliklar.

Matseratsiya va distillash orqali olingan alkogol va spirtli ichimliklar (meva nomi ko'rsatilgan holda) uchun REMD=180 mg/l bo'lishi lozim. (Spirtli ichimliklar turlari Geist (meva nomi yoki ishlatilgan xomashyo ko'rsatilgan holda), London gin, Sambuca, Maraskino, Marraskino yoki Maraschino va Mistra bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan

oshmasligi lozim.

14.2.7.1 Xushbo'ylantirilgan vinolar.

Xushbo'ylantirilgan vino amerikano, achchiq vino uchun REMD=50 mg/l bo'lishi lozim;

Ma'lumot: amerikanoda E 100, E 101, E 102, E 104, E 120, E 122, E 123, E 124 va achchiq vinoda E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

14.2.7.2 Vino asosidagi xushbo'ylantirilgan ichimliklar.

Gazlangan alkogolli ichimlik uchun REMD=50 mg/l bo'lishi lozim;

Ma'lumot: gazlangan alkogolli ichimlikda E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

Vino asosidagi xushbo'ylantirilgan ichimliklar uchun REMD=50 mg/l bo'lishi lozim (gazlangan alkogolli ichimlik turlari sangriya, klariya, zura bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.7.3 Vino mahsulotlari asosidagi xushbo'ylashtirilgan kokteyllar.

Vino mahsulotlari asosidagi xushbo'ylashtirilgan kokteyllar uchun REMD=50 mg/l bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.8 Boshqa alkogolli ichimliklar, alkogolli va alkogolsiz ichimliklar aralashmalari.

Tarkibida 15% dan kam alkogol bo'lgan spirtli ichimliklar uchun REMD=180 mg/l bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

16 Shirinliklar (desertlar) (1, 3 va 4-toifadagi mahsulotlar bundan mustasno).

Shirinliklar (desertlar) uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=15 mg/kg bo'lishi lozim.

17.1. Ovqatga qattiq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari (go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun ovqatga parhez qo'shimchalari bundan mustasno).

Ovqatga qattiq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari uchun REMD=35 mg/kg bo'lishi lozim.

Ovqatga qo'shiladigan saqich shakldagi parhez qo'shimchalar uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=150 mg/kg bo'lishi lozim.

17.2 Ovqatga suyuq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari (go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun ovqatga parhez qo'shimchalari bundan mustasno).

		Ovqatga suyuq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3- guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak. Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=150 mg/kg bo'lishi lozim.	
E 110	Sariq “quyosh botishi” FCF	1.4 Xushbo'ylantirilgan qatiq va termik ishlov berilgan mahsulotlar. Xushbo'ylantirilgan qatiq va termik ishlov berilgan mahsulotlar uchun REMD=5 mg/l bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va III guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak. Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=150 mg/kg bo'lishi lozim. 1.6.3 3 Boshqa turdagi qaymoqlar. Xushbo'ylantirilgan kremlar uchun REMD=5 mg/kg bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim. 4.2.4.1 Meva va sabzavot mahsulotlari (kompotlar bundan mustasno). Mevali xantal uchun REMD=35 mg/kg bo'lishi lozim; Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim. 5.2 Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni tetiklashtiruvchi mayda konfetlar. Shakarga bosilgan meva va sabzavotlar uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim;	-

yong'oq yoki kakao asosidagi an'anaviy shakar bilan qoplangan, bodom yoki sharsimon shakldagi, uzunligi 2 sm dan ortiq bo'lgan, to'ylar, yig'ilishlar va boshqa tantanalarda taqdim etiladigan shirinliklar uchun REMD=50 mg/kg, REMD=35 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=70 mg/kg bo'lishi lozim. Bu qoidadan istisno tariqasida faqat mayda (mikro) shirinliklar uchun REMD=40 mg/kg bo'lishi lozim.

5.3 Saqich.

Saqich uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=150 mg/kg bo'lishi lozim.

5.4 Bezak qoplamalar va to'ldirmalarda (nachinka):

bezak qoplamalar va to'ldirmalar (nachinka) uchun REMD=35 mg/kg (bezaklar, qoplamalar va souslar, to'ldirmalar bundan mustasno);

qo'shimchalar uchun REMD=35 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va III guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori Shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=300 mg/kg bo'lishi lozim.

6.6 Quritilgan non ushoqlari (panirovka):

quritilgan non ushoqlari (panirovka) uchun REMD=35 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

8.3.1 Issiqlik bilan ishlov berilmagan qayta ishlangan go'sht.

Issiqlik bilan ishlov berilmagan qayta ishlangan go'sht turi sobrasada uchun REMD=15 mg/kg bo'lishi lozim.

8.3.3 Go'sht o'rash uchun ishlatiluvchi iste'mol qilinuvchi qobiqlar, qoplamalar va bezaklar.

Bezak va qobiqlar uchun REMD=35 mg/kg (pasturmaning iste'mol qilinadigan tashqi qobig'i bundan mustasno);

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va III guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

E 120, koshenil, karmin kislotsi, karminlar uchun tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Boshqa hech qanday tarkibida alyuminiy bo'lgan lak-bo'yoqlarni ishlatish mumkin emas.

9.2 Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, shu jumladan qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar.

Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, shu jumladan qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar turlari *Theragra chalcogramma*, *Pollachius virens* va *Clupea harengus* asosidagi losos o'rmini bosuvchi mahsulotlar uchun REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 110, E 124 va 3- guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

9.3 Baliqlar uvildirig'i (ikra).

Baliqlar uvildirig'i (ikra) uchun REMD=200 mg/kg (osyotr baliqlari (Caviar) uvildirig'i (ikra) bundan mustasno);

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

12.4 Xantal.

Xantal uchun REMD=50 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

12.6 Souslar.

sous turlari marinadlar va pikulilar uchun REMD=30 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104 va E 110, shuningdek 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

12.9 Oqsilli mahsulotlar (1.8-toifaga kiritilgan mahsulotlar bundan mustasno):

o'simlik oqsillari asosidagi go'sht va baliq analoglari uchun REMD=20 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

13.2 Maxsus tibbiy oziq-ovqat mahsulotlari.

Maxsus tibbiy parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

13.3 Vaznni nazorat qilish uchun parhez mahsulotlari.

Vaznni nazorat qilish uchun parhez mahsulotlari uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.1.4 Xushbo'ylashtirilgan ichimliklar.

Xushbo'ylashtirilgan ichimliklar uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim. (shokoladli sut va solodli o'simlik mahsulotlari bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori REMD=15 mg/kg bo'lishi lozim.

14.2.3 Olma, nok yoki behi sharbatini bijg'itish natijasida olinadigan kuchsiz alkogolli yoki alkogolli ichimlik (Sidr va perri).

Sidr va perri uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim. (olma, nok yoki behi sharbatini bijg'itish natijasida olinadigan kuchsiz alkogolli yoki alkogolli ichimlik turlari bushe sidri, muzli sidr, muzli perri bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104 va E 110, shuningdek 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal ruxsat etilgan miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.4 Mevali vinolar va boshqa turdagi xomashyolardan tayyorlangan vinolar.

Mevali vinolar va boshqa turdagi xomashyolardan tayyorlangan vinolar uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.6 Spirtli ichimliklar.

Matseratsiya va distillash orqali olingan alkogol va spirtli ichimliklar (meva nomi ko'rsatilgan holda) uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim. (Spirtli ichimliklar turlari Geist (meva nomi yoki ishlatilgan xomashyo ko'rsatilgan holda), London gin, Sambuca, Maraskino, Marraskino yoki Maraschino va Mistras bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.7.1 Xushbo'ylantirilgan vinolar.

Achchiq vinolar uchun REMD=50 mg/l bo'lishi lozim;

Ma'lumot: achchiq vinoda E 100, E 101, E 102, E 104, E 110, E 120, E 122, E 123, E 124, E 129 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

14.2.7.2 Vино asosidagi xushbo'ylantirilgan ichimliklar: gazlangan alkogolli ichimlik uchun REMD=50 mg/l bo'lishi lozim (achchiq gazli ichimlik, sangriya, klyariya, zurra bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

14.2.7.3 Vино mahsulotlari asosidagi xushbo'ylashtirilgan kokteyllar.

Vino mahsulotlari asosidagi xushbo'ylashtirilgan kokteyllar uchun REMD=50 mg/l bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

14.2.8 Boshqa alkogolli ichimliklar, shu jumladan alkogolli va alkogolsiz ichimliklar aralashmalari.

Tarkibida 15% dan kam alkogol bo'lgan spirtli ichimliklar uchun REMD=100 mg/l bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3- guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi lozim.

16 Shirinliklar (desertlar).

Shirinliklar (desertlar) uchun REMD=5 mg/kg (1, 3 va 4-toifadagi mahsulotlar bundan mustasno).

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori uchun REMD=15 mg/kg bo'lishi lozim.

17.1 Ovqatga qattiq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari.

Ovqatga qattiq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari uchun REMD=10 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak.

Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori uchun REMD=150 mg/kg bo'lishi lozim.

		17.2 Ovqatga suyuq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari. Ovqatga suyuq shaklda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari uchun REMD=10 mg/l bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 104, E 110, E 124 va 3-guruh bo'yoqlarning umumiy miqdori shu guruh uchun ko'rsatilgan maksimal miqdordan oshmasligi kerak. Tarkibida alyuminiy bo'lgan barcha lak-bo'yoqlarda alyuminiy miqdori uchun REMD=150 mg/kg bo'lishi lozim.	
E 120	Karminlar, karmin kislotali, koxenil	1.7.6 Pishloqli mahsulotlar (16-toifaga kiritilganlari bundan mustasno). Qizil marmarsimon pishloq mahsulotlari uchun REMD=125 mg/kg bo'lishi lozim. 4.2.1 1 Qurtilgan meva va sabzavotlar. Konservalangan qizil mevalar uchun REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim; Ma'lumot: E 120, E 122, E 129, E 131 va E 133 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi. 4.2.2 Sirka, yog' yoki tuzli suvda konservalangan meva va sabzavotlar. Konservalangan qizil mevalar uchun REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim. Ma'lumot: E 120, E 122, E 129, E 131 va E 133 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi. 4.2.3 Konservalangan yoki idishlarga solingan meva va sabzavotlar.	3

Konservalangan qizil mevalar uchun REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim;

Ma'lumot: E 120, E 122, E 129, E 131 va E 133 qo'shimchalarini alohida yoki birgalikda maksimal miqdorni hisobga olgan holda qo'llaniladi.

4.2.5.3 Meva yoki sabzavot va shunga o'xshash pastalar.

8.3.3. Go'sht uchun qobiqlar, qoplamalar va bezaklar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat bezaklar va qoplamalar uchun REMD=500 mg/kg bo'lishi lozim (pasturmaning yeyiladigan tashqi qoplamasi bundan mustasno); yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili faqat iste'mol qilinadigan qobiqlar uchun qo'llaniladi.

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=10 mg/kg ni tashkil etadi, boshqa alyuminiy lak-bo'yoqlaridan foydalanish taqiqlanadi.

9.2. Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, shu jumladan qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat surimi va shunga o'xshash mahsulotlar, shuningdek Theragra chalcogramma, Pollachius virens va Clupea harengus asosidagi losos o'rnini bosuvchilar uchun REMD=500 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=4 mg/kg ni tashkil etadi.

9.3. Baliq ikresi

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=300 mg/kg bo'lishi lozim (osyotr baliqlari ikresi bundan mustasno).

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=3 mg/kg ni tashkil etadi.

12.2.2. Ziravorlar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat ziravorlar uchun (karri kukuni, tandoori) uchun REMD=500 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: barcha alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=120 mg/kg ni tashkil etadi.

12.4. Xardal.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=300 mg/kg bo'lishi lozim.

12.5. Sho'rvalar va bulyonlar

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=50 mg/kg bo'lishi lozim.

12.6. Souslar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

ziravorlar, chutni va pikalilli, shu jumladan tuzlangan mahsulotlar uchun REMD=500 mg/kg bo'lishi lozim (tomat souslari bundan tashqari).

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=10 mg/kg ni tashkil etadi.

12.9. 1.8-toifaga kiritilmagan oqsilli mahsulotlar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat o'simlik oqsillariga asoslangan go'sht va baliq o'xshatmalari uchun REMD=100 mg/kg bo'lishi lozim.

13.2. Maxsus tibbiy maqsadlar uchun mo'ljallangan parhez oziq-ovqat mahsulotlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=50 mg/kg bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=3 mg/kg ni tashkil etadi, boshqa alyuminiy lak-bo'yoqlaridan foydalanish taqiqlanadi.

13.3. Kunlik ovqatlanish ratsionini yoki ma'lum bir ovqatlanishni to'liq almashtirish uchun mo'ljallangan, vaznni nazorat qilishga yordam beruvchi oziq-ovqat mahsulotlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=50 mg/kg bo'lishi lozim.

14.1.4. Xushbo'ylashtirilgan ichimliklar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=100 mg/kg bo'lishi lozim (shokoladli sut va solod mahsulotlari bundan mustasno)

Ma'lumot: E 122 va E 155 lak-bo'yoqlarining har birining miqdori REMD=50 mg/kg yoki mg/l dan oshmasligi kerak.

barcha alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=15 mg/kg ni tashkil etadi.

14.2.3. Kuchsiz alkogolli yoki alkogolli ichimlik (Sidr va perri).

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim (kuchsiz alkogolli yoki alkogolli ichimlik turlari bouché sidr, Yakostsiovi sidr, Yakostsiovi perri, muzli sidr, muzli perri bundan mustasno).

14.2.4. Meva vinolari va boshqa turdagi xom-ashyodan tayyorlangan vinolar

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim (sifatli meva vinosi bundan mustasno).

14.2.6. Spirtli ichimliklar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim (spirtli ichimliklar bundan mustasno).

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=1,5 mg/kg ni tashkil etadi, boshqa alyuminiy lak-bo'yoqlaridan foydalanish taqiqlanadi.

14.2.7.3. Vino mahsulotlari asosidagi xushbo'ylangan kokteyllar

Alohida cheklovlar/istisnolar:

REMD=200 mg/l bo'lishi lozim

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=1,5 mg/kg ni tashkil etadi.

14.2.8. Boshqa alkogolli ichimliklar, jumladan alkogolli ichimliklarning alkogolsiz ichimliklar bilan aralashmalari va hajmi bo'yicha alkogol konsentratsiyasi 15% dan kam bo'lgan distillangan spirt asosidagi boshqa alkogolli ichimliklar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat hajmi bo'yicha alkogol miqdori 15% dan kam bo'lgan alkogolli ichimliklar uchun REMD=200 mg/l bo'lishi lozim.

Ma'lumot: E 120 (koshenil, karmin kislotasi, karminlar) alyuminiy lak-bo'yoqlaridagi alyuminiyning REMD=1,5 mg/kg ni tashkil etadi, boshqa alyuminiy lak-bo'yoqlaridan foydalanish taqiqlanadi.

15.1. Kartoshka, don, un va kraxmal asosidagi gazaklar

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat ekstrudirlangan yoki kengaytirilgan tuzli gazaklar uchun REMD=200 mg/kg bo'lishi lozim.

REMD=100 mg/kg bo'lishi lozim (ekstrudirlangan yoki kengaytirilgan tuzli gazak mahsulotlari bundan mustasno).

Ma'lumot: barcha alyuminiy siyohlaridan kelib chiqadigan alyuminiyning REMD=30 mg/kg ni tashkil etadi.

	15.2. Qayta ishlangan yong‘oqlar. Alohida cheklovlar/istisnolar: faqat po‘choqli yong‘oqlar uchun REMD=100 mg/kg bo‘lishi lozim. 16.1, 16.3 va 16.4-toifalarga kirmaydigan desertlar Alohida cheklovlar/istisnolar: Ma’lumot: barcha alyuminiy siyohlaridan kelib chiqadigan alyuminiyning REMD=15 mg/kg ni tashkil etadi. 17.1. Qattiq shakldagi ovqatlanish qo‘shimchalari (chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan ovqatlanish qo‘shimchalari bundan mustasno). Alohida cheklovlar/istisnolar: REMD=300 mg/kg bo‘lishi lozim. Ma’lumot: barcha alyuminiy siyohlaridan kelib chiqadigan alyuminiyning REMD=150 mg/kg ni tashkil etadi. 17.2. Suyuq shakldagi ovqatlanish qo‘shimchalari (chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan ovqatlanish qo‘shimchalari bundan mustasno). Alohida cheklovlar/istisnolar: REMD=100 mg/kg bo‘lishi lozim.
--	--

4-jadval 4-guruh. Ayrim oziq-ovqat mahsulotlari toifalarida (poliollar) oziq-ovqat qo‘shimchalaridan guruh sifatida foydalanish shartlari

4-guruhga kiruvchi qo‘shimchalar (poliollar)	Oziq-ovqat mahsulotlari toifalarida qo‘llash shartlari
Sorbitollar (E 420) Mannit (E 421) Izomalt (E 953) Maltitollar (E 965) Laktitol (E 966) Ksilit (E 967) Eritrit (E 968)	1.4. Xushbo‘ylantirilgan fermentlangan shu jumladan termik ishlov berilgan sut mahsulotlari. Alohida cheklovlar/istisnolar: faqat kaloriyasi kamaytirilgan yoki shakarsiz tayyorlangan mahsulotlar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi. 3. Muzqaymoq. Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energiya miqdori kamaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

4.2.4.1. Meva va sabzavot konservalari (kompotlar bundan mustasno).

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energetik qiymati pasaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi (meva sharbatlari asosidagi ichimliklar ishlab chiqarish uchun mo'ljallanganlar bundan mustasno).

4.2.5. Jemlar, jelelar va marmeladlar hamda ularga o'xshash mahsulotlar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energetik qiymati pasaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

4.2.5.1. Ekstra jemlar va ekstra jeleler.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energetik qiymati pasaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan jemlar, jeleler, marmeladlar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

4.2.5.3. Meva yoki sabzavot va boshqa o'xshash pastalar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energiya miqdori kamaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

5.1. Kakao va shokolad mahsulotlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energiya miqdori kamaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

5.2. Boshqa qandolat mahsulotlari, jumladan, nafasni yangilovchi mikrokonfetlar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat qo'shimcha shakar qo'shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi;

faqat energetik qiymati pasaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan kraxmal asosidagi qandolat mahsulotlari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi;

faqat kakao yoki quritilgan mevalar, sut yoki yog‘ asosidagi, energetik qiymati pasaytirilgan yoki qo‘shimcha shakar qo‘shilmagan sendvich-pastalari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi;

faqat kakao yoki quritilgan mevalar asosidagi, energetik qiymati pasaytirilgan yoki shakar qo‘shilmagan qandolat mahsulotlari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi;

faqat energetik qiymati pasaytirilgan yoki shakar qo‘shilmagan qandlangan mevalar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi.

5.3. Saqich.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat shakar qo‘shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi.

5.4. Bezaklar, qoplamalar va to‘ldirmalar (nachinka).

Alohida cheklovlar/istisnolar

faqat shakar qo‘shilmagan bezaklar, qoplamalar va to‘ldirmalar (nachinka) uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi;

faqat souslar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi.

6.3. Quruq nonushtalar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energetik qiymati pasaytirilgan yoki shakar qo‘shilmagan quruq nonushtalar yoki donli mahsulotlar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi.

7.2. Un qandolat mahsulotlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat energiya miqdori kamaytirilgan yoki shakar qo‘shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi.

9.1.1. Ishlov berilmagan baliq.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat muzlatilgan va chuqur muzlatilgan, qayta ishlanmagan, shirinlashtirish maqsadlari uchun mo‘ljallanmagan baliq uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi.

9.1.2. Ishlov berilmagan mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

faqat muzlatilgan va chuqur muzlatilgan ishlov berilmagan qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va boshoyoqli mollyuskalar; shirinlashtirishdan boshqa maqsadlar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

11.4.1. Suyuq shakldagi oshxona shirin ta'm bergichlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

suyuq shakldagi oshxona shirin ta'm bergichlari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

11.4.2. Kukun shaklidagi oshxona shirin ta'm bergichlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

kukun shaklidagi oshxona shirin ta'm bergichlari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

11.4.3. Tabletk shaklidagi oshxona shirin ta'm bergichlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

tabletk shaklidagi oshxona shirin ta'm bergichlari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

12.4 Xantal.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

xantal uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

12.6. Souslar

Alohida cheklovlar/istisnolar:

souslar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

13.2. Maxsus tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan parhez oziq-ovqat mahsulotlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

maxsus tibbiy maqsadlarda foydalaniladigan parhez oziq-ovqat mahsulotlari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.

13.3. Kunlik ovqatlanish ratsionini yoki ma'lum bir ovqatlanishni to'liq almashtirish uchun mo'ljallangan vazn nazoratiga oid oziq-ovqat mahsulotlari.

Alohida cheklovlar/istisnolar:

kunlik ovqatlanish ratsionini yoki ma'lum bir ovqatlanishni to'liq almashtirish uchun mo'ljallangan vazn nazoratiga oid oziq-ovqat mahsulotlar uchun yetarli

	miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi. 13.4. Glyutenni ko'tara olmaydigan insonlar iste'mol qilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar. Alohida cheklovlar/istisnolar: glyutenni ko'tara olmaydigan insonlar iste'mol qilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi. 16. Desertlar (1, 3 va 4-toifadagi mahsulotlar bundan mustasno). Alohida cheklovlar/istisnolar: faqat kaloriyasi kamaytirilgan yoki qo'shimcha shakar qo'shilmagan hollarda yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi. 17.1. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun, qattiq holatda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalar. Alohida cheklovlar/istisnolar: go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun, qattiq holatda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalar uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi. 17.2. Go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun suyuq holatda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari. Alohida cheklovlar/istisnolar: go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun suyuq holatda yetkazib beriladigan parhez qo'shimchalari uchun yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi.
--	--

”
.

Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarga 3-ILOVA

“Oziq-ovqat qo'shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qo'shimchalarini tamg'alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) 3-ILOVA

Oziq-ovqat mahsulotlarining toifalari

№	Toifa raqami	Oziq-ovqat mahsulotlari toifalarining nomi va tavsifi
1	0	Barcha oziq-ovqat mahsulotlari toifalari

2	01	Sut va sut mahsulotlari: ushbu toifaga har qanday sut beruvchi hayvonlarning sutidan (sigir, qo'y, echki, buyvol, eshak, ot) olingan sut mahsulotlarining barcha turlarini o'z ichiga oladi (02 toifadagi "Yog' va moylar, shuningdek yog' va moy emulsiyalari", 03-toifadagi "Oziq-ovqat muzi", 14-toifadagi "Ichimliklar" va 16-toifadagi "Qandolat mahsulotlari" bundan mustasno); bu toifa 01.8-toifa "Sut va sut mahsulotlari, ichimliklarni oqartiruvchi vositalar yoki quruq qaymoq (suxie slivki)" toifasini ham o'z ichiga oladi; ushbu toifada "xushbo'ylashtirilgan" mahsulot - har qanday turdagi ta'm va (yoki) xushbo'y hid beruvchi qo'shilgan mahsulot (shakar, shirinlashtirgich, xushbo'ylashtiruvchi moddalar, meva mahsuloti, ziravorlar, sabzavotlar)ni qamrab oladi, bu "xushbo'ylashtirilmagan"ning teskarisini bildiradi; ushbu toifa tarkibida tegishli laktozasiz oziq-ovqat mahsulotlari ham mavjud.
3	01.1	Xushbo'ylashtirilmagan pasterizatsiyalangan va sterilizatsiyalangan sut, (ultrapasterizatsiyalangan): ushbu toifa qaymog'i olinmagan, yog'sizlantirilgan va yarim yog'sizlantirilgan sut, shuningdek suyuq sut ko'rinishida iste'mol qilish uchun mo'ljallangan sutni (laktozasiz oziq-ovqat mahsulotlari) qamrab oladi.
4	01.2	Xushbo'ylantirilmagan qatiq (fermentlangan nordon sut) mahsulotlari, shu jumladan xushbo'ylantirilmagan tabiiy paxta (buttermilk) — achitilgan sut zardobi (sterilizatsiyalangan bundan mustasno) va fermentatsiyadan keyin issiqlik bilan ishlov berilmagan mahsulotlar: qatiq mahsulotlari - bijg'ish yoki bakteriyalar ta'sirida o'z-o'zidan bijg'ish yo'li bilan yoki sut kislotasi yoxud xushbo'ylantiruvchi moddalar ishlab chiqaruvchi bakteriyalar bilan inokulyatsiya qilish orqali ishlab chiqariladi; paxta (buttermilk) - deyarli yog'sizlantirilgan suyuqlik bo'lib, yog' ishlab chiqarish jarayonida (masalan, fermentatsiyalangan yoki fermentatsiyalanmagan sut va qaymoqni qaynatishda) qoladi, shuningdek, yog' miqdori nisbatan past bo'lgan suyuq sutni yuqorida oddiy qatiq mahsulotlari uchun tavsiflangan texnologiyalar yordamida ivitish orqali ham ishlab chiqariladi; bu toifaga ta'm qo'shimchalarisiz kefir, yogurt va ayron kiradi; ushbu toifaga 01.6-toifaga tegishli bo'lgan ryajenka kirmaydi.

5	01.3	Fermentatsiyadan so'ng issiqlik ishlovidan o'tgan, xushbo'ylantirgichlarsiz qatiq (fermentlangan nordon sut) mahsulotlari: tarkibida pasterizatsiyalangan yoki sterilizatsiyalangan yog' mavjud; ushbu toifaga 01.6-toifaga kiritilgan qaymoqlar kirmaydi.
6	01.4	Xushbo'ylashtirilgan qatiq (fermentlangan nordon sut mahsulotlari, shu jumladan termik ishlov berilganlari): ushbu toifaga termik ishlov berishdan o'tgan va termik ishlov berishdan o'tmagan mahsulotlar kiradi; bu mahsulotlarni shirinlik sifatida iste'mol qilish mumkin, ushbu toifaga kirmagan boshqa shirinliklar 16-toifaga kiritilgan; bu toifaga xushbo'ylantirilgan yogurt, yogurtli ichimliklar va ayron kiradi; ushbu toifaga 01.6 toifasiga kiritilgan xushbo'ylashtirilgan fermentlangan qaymoqlar kirmaydi.
7	01.5	Quruq sut: bu toifaga qisman suvsizlantirilgan sut va to'liq suvsizlantirilgan konservalangan sut kiradi.
8	01.6	Qaymoq va quruq qaymoq (сливки): qaymoq (сливки) - sutga qaraganda yog'lilik darajasi nisbatan yuqori bo'lgan suyuq sut mahsuloti bo'lib, barcha suyuq, yarim suyuq va yarim qattiq qaymoq mahsulotlarni o'z ichiga oladi; quruq qaymoq (сухие сливки) - sut mahsuloti bo'lib, qaymoq tarkibidagi suvni qisman chiqarib tashlash yo'li bilan olinadi; bu toifaga ryajenka kiradi, u ivitilgan sutni termofil sut kislotali streptokokkning sof kulturasini ivitish yo'li bilan olinadigan sut-qatiq mahsulotidir.
9	01.6.1	Ta'm beruvchi qo'shimchalarsiz pasterizatsiyalangan qaymoq (yog'siz qaymoq bundan mustasno): Tegishli termik ishlov berish yo'li bilan pasterizatsiyalangan qaymoq
10	01.6.2	Xushbo'ylantirilmagan fermentlangan tirik sut-qatiq mahsulotlari va yog' miqdori 20% dan kam bo'lgan o'rni bosuvchi oziq-ovqat mahsulotlari: ushbu toifaga yog' miqdori 20% dan kam bo'lgan xushbo'ylashtirilmagan qaymoqli oziq-ovqat mahsulotlari kiradi, bunga fermentlar ta'sirida hosil bo'ladigan quyuq, yopishqoq qaymoq, hamda smetana (sut kislotali bijg'ishga uchragan qaymoq) kiradi;

		ushbu toifaga, yog‘ miqdori 20% dan kam bo‘lgan fermentlangan qaymoqdan tayyorlangan, tez eriydigan, xushbo‘ylantirgichlarsiz ko‘pirtirilgan qaymoqlar va smetana o‘rnini bosuvchilar ham kiradi; qaymoqdan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlarining o‘rnini bosuvchilar sut mahsulotlariga o‘xshash vazifalarni bajaradigan va tarkibida qo‘shimcha ingrediyentlar bo‘lishi mumkin bo‘lgan (lekin sut tarkibiy qismlarini almashtirmaydigan) mahsulotlardir.
11	01.6.3	Boshqa turdagi qaymoqlar (сливки): ushbu toifaga 01.6.1 va 01.6.2 toifalarida qayd etilmagan, harorati pasteurizatsiya haroratidan yuqori bo‘lgan termik ishlovdan o‘tgan oziq-ovqat mahsulotlari (sterilizatsiyalangan va ultrapasteurizatsiyalangan qaymoq (сливки)), yumshoq massa hosil bo‘lguncha mikser, ko‘pirtirgich yoki sanchqi bilan ko‘pirtirilgan qaymoq (взбитые сливки) (Clotted cream - sariq rangli quyuq qaymoq), 01.6.2 toifaga kiritilganlarga qaraganda yog‘ miqdori kamroq bo‘lgan boshqa qaymoqlar (сливки) kiradi; ushbu toifaga xushbo‘ylashtirilgan ryajenka ichimligi kabi barcha turdagi qaymoq va quruq qaymoqlar kiradi; xushbo‘ylashtirilgan ko‘pirtirilgan qaymoq 05.4 toifasi toifaga kiradi.
12	01.7	Pishloqlar va pishloq mahsulotlari: bu toifaga pishloqlar va tvorog mahsulotlari kiradi, ular quyultirilgan sut-oqsil tuzilmasida suv va yog‘ saqlaydigan mahsulotlar sifatida tavsiflanadi.
13	01.7.1	Yumshoq yetilmagan pishloq (16-toifaga kiradigan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno): ushbu toifa tayyorlanganidan keyin darhol iste‘mol qilishga tayyor bo‘ladigan pishloqlar (yangi pishloq, tuzli suvdagi yetilmagan pishloqlarni); Ushbu toifaga: mozzarella: cho‘ziluvchan yumshoq pishloq; maskarpone: sut qaymog‘ini kislotali-issiqlik koagulyatsiyasi yo‘li bilan olinadigan yumshoq, yangi, kremsimon pishloq, ba‘zan sut qo‘shilishi mumkin
14	01.7.2	Yetilgan pishloqlar. Bu toifaga tayyorlanishi bilanoq iste‘mol qilishga yaroqli bo‘lmagan, balki ma‘lum pishloq turiga xos bo‘lgan zarur biokimyoviy va fizik o‘zgarishlarni ta‘minlaydigan vaqt va harorat sharoitida saqlanadigan pishloqlar kiradi. Yetilgan pishloq yumshoq, yarim qattiq, qattiq yoki juda qattiq bo‘lishi mumkin.

15	01.7.3	Iste'molga yaroqli pishloq po'stlog'i: pishloq massasining tashqi qismi, dastlab pishloqning ichki qismi bilan bir xil tarkibga ega bo'ladi, ammo tuzlangandan va/yoki yetilgandan so'ng quruq holatga kelishi mumkin. Ruxsat etilgan oziq-ovqat bo'yoqlari faqat pishloq yuzasiga ishlov berish uchun mo'ljallangan.
16	01.7.4	Sut zardobidan tayyorlangan pishloq. Bu toifaga zardobni 5% gacha shakar qo'shib yoki qo'shmasdan quyuqlashtirish yo'li bilan olinadigan qattiq yoki yarim qattiq oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, texnologik zaruratga ko'ra, asosan zardobdan ajratilgan zardob oqsillarini koagulyatsiyalash orqali tayyorlanadigan quyuqlashtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan zardob oqsillaridan tayyorlangan pishloqlar kiradi. Bu toifaga quyidagilar kiradi: Rikotta - zardobni issiqlik yoki kislota-issiqlik koagulyatsiyasi orqali olinadigan qattiq yangi sut mahsuloti bo'lib, unga sut va/yoki qaymoq va/yoki zardob qaymog'i qo'shilishi mumkin.
17	01.7.5	Eritilgan pishloq. Bu toifaga pishloq, pishloq aralashmalari va boshqa sut tarkibiy qismlari, masalan, sut yog'i, sut oqsili, quruq sut va turli miqdordagi ichimlik suvini eritish va emulsiyalash natijasida olingan pasta ko'rinishidagi yoki qattiq mahsulotlar kiradi. Eritilgan pishloq ta'm beruvchi qo'shimchalar bilan yoki ularsiz bo'lishi mumkin.
18	01.7.6	Pishloq mahsulotlari (16-toifaga kiradigan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno): Ushbu toifaga sut oqsilini koagulyatsiyalashni o'z ichiga olgan qayta ishlash texnologiyasidan foydalanib sutdan olingan pishloqdan tashqari oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek yakuniy fizik yoki organoleptik xususiyatlari pishloqqa o'xshash bo'lgan sut mahsulotlari kiradi.
19	01.8	Sut mahsulotlari o'xshashlari, shu jumladan ichimliklar uchun oqartirgichlar. Ushbu toifaga sut oqsillari yoki sut yog'lari qisman yoki to'liq sut bo'lmagan oqsillar, yog'lar yoki moylar bilan almashtirilgan mahsulotlar kiradi. Bu toifaga, shuningdek, sut bo'lmagan qaymoq va pishloqlar, hamda ichimliklar uchun oqartiruvchilar yoki sut bo'lmagan asosli qaymoqli oziq-ovqat mahsulotlari ham kiradi. Bular qahva, choy, issiq shokolad va boshqa ichimliklarga qo'shimcha sifatida sut yoki qaymoq o'rini bosuvchi suyuq yoki donador moddalardir. Ba'zi qaymoqsimon mahsulotlar tarkibida vanil, yong'oq

		yoki irland likyori kabi xushbo'y qo'shimchalar mavjud. Qaymoqsimon mahsulotlar kam kaloriyali va yog'siz bo'lishi mumkin.
20	01.9	Oziq-ovqat kazeinatlari.
21	02	Yog'lar va moylar, hamda yog'li va moyli emulsiyalar. Bu toifaga o'simlik yoki hayvon manbalaridan yoki ularning aralashmalaridan, shu jumladan dengiz manbalaridan olingan barcha yog'li mahsulotlar kiradi.
22	02.1	Tarkibida deyarli suv bo'lmagan yog'lar va moylar (suvsiz sut yog'idan tashqari). Oziq-ovqat yog'lari va moylari asosan o'simlik yoki hayvon manbalaridan, shu jumladan dengizdan olingan triglitseridlardan iborat oziq-ovqat mahsulotlaridir.
23	02.2	Asosan "suvda yog'" tipidagi yog' va moyli emulsiyalar.
24	02.2.1	Sariyog', konsentrlangan sariyog' va suvsiz sut yog'i. Ushbu toifaga faqat sutdan olingan oziq-ovqat mahsulotlari va/yoki sutdan suv va yog'siz qattiq zarrachalarni, shuningdek suyuq emulsiyalarni deyarli to'liq yo'qotadigan jarayon yordamida olingan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Ushbu toifaga yog'sizlantirilgan sariyog' kirmaydi.
25	02.2.2	Boshqa yog' va moyli emulsiyalar, xususan spredlar va suyuq emulsiyalar. Bu toifaga boshqa emulsiyalar, jumladan spredlar va suyuq emulsiyalar kiradi. Bu turkumga quyidagi mahsulotlar kiradi: sut yog'lari (faqat sut va/yoki ayrim sut mahsulotlaridan olinadigan mahsulotlar, ular uchun yog'lar muhim tarkibiy qism hisoblanadi, asosan qattiq plastik emulsiya ko'rinishidagi "suvdagi yog'" turi): 3/4 yog'li sariyog', yarim yog'li sariyog', x% li sut spredi; yog'lar ("suvdagi yog'" turidagi mahsulotlar, asosan qattiq va (yoki) suyuq o'simlik va (yoki) hayvon yog'laridan olinadigan qattiq plastik emulsiya ko'rinishidagi, tarkibida sut yog'i 3% dan oshmaydigan mahsulotlar): margarin, 3/4 yog'li margarin, yarim yog'li margarin, x% yog'li spredlar; o'simlik va (yoki) hayvon mahsulotlaridan tashkil topgan yog'lar (qattiq va (yoki) suyuq o'simlik va (yoki) hayvon yog'laridan olingan qattiq plastik emulsiya ko'rinishidagi "suvdagi yog'" turidagi, inson iste'moli uchun yaroqli, sut yog'i zarralari miqdori umumiy yog' miqdorining 10% dan 80% gacha bo'lgan oziq-ovqat mahsuloti): aralashma, 3/4 yog'li aralashma, yarim yog'li aralashma, x% li aralashma; Suyuq emulsiyalar: sovuq sharoitlarda ham suyuq holatda qoladigan suyuq margarin qattiq margarin yoki yog'ga muqobil sifatida ishlatiladi.

26	02.3	Tova uchun o'simlik moyi purkagichi. Oshxona purkagichi - bu ovqatning tovaga yopishib qolishini oldini olish uchun tova va boshqa oshxona anjomlariga purkaladigan o'simlik yog'i asosidagi vosita.
27	03	Oziq-ovqat muzi: Oziq-ovqat muzi quyidagi xususiyatlarga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotidir: - suyuq holatdan yoki quyuqroq konsistensiyadan muzlatilgan; - muzlatilgan holda saqlanadi, tashiladi, sotiladi va iste'mol qilinadi; - foydalanishga ruxsat etilgan barcha oziq-ovqat ingrediylari va qo'shimchalarini o'z ichiga olishi mumkin
28	04	Meva va sabzavotlar. Bu toifaga mevalar, sabzavotlar, qo'ziqorinlar, ildizmevalar va tuganakmevalar, dukkakli o'simliklar, suv o'tlari, yong'oqlar va urug'lar kiradi.
29	04.1	Ishlov berilmagan meva va sabzavotlar. Bu toifaga barcha ishlov berilmagan meva va sabzavotlar kiradi.
30	04.1.1	Butun yangi meva va sabzavotlar. Yangi terilgan meva va sabzavotlar.
31	04.1.2	Tozalangan, to'g'ralgan va maydalangan meva va sabzavotlar. Bu toifaga tozalangan, bo'laklarga bo'lingan, maydalangan yoki ezilgan meva va sabzavotlar kiradi.
32	04.1.3	Muzlatilgan meva va sabzavotlar. Bu toifaga muzlatishdan oldin bug'da pishirish, bo'laklarga bo'lish yoki maydalash mumkin bo'lgan yangi meva va sabzavotlar kiradi. Mahsulotni sharbat yoki shakar siropida muzlatish mumkin. Masalan, muzlatilgan meva salati va muzlatilgan qulupnay. Agar meva va sabzavotlar ularning dastlabki holatini sezilarli darajada o'zgartiradigan tarzda bug'langan bo'lsa, bunday mahsulotlar 04.2.4.1 toifasiga kiritilishi mumkin.
33	04.2	Qayta ishlangan meva va sabzavotlar. Bu toifaga quritilgan, konservalangan, shishalangan meva va sabzavotlar, sirkali, yog'li yoki tuzli suvdagi meva va sabzavotlar kiradi; shuningdek, meva va sabzavot tayyorlamalari, patoka, jele, murabbo va shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi.
34	04.2.1	Quritilgan meva va sabzavotlar. Asosiy ozuqa moddalariga zarar yetkazmagan holda, tarkibidagi suvning tabiiy miqdori mikroorganizmlarning o'sishi uchun zarur bo'lgan darajadan pasaytirilgan meva va

		sabzavotlar. Xususan, quritilgan olma bo'laklari, mayiz, quritilgan kokos qirindisi yoki yormasi, qora olxo'ri, anjir, quritilgan qo'ziqorin, pomidor, shuningdek quritilgan yasmiq, quritilgan loviya va quritilgan no'xat. Mahsulot iste'mol qilishdan oldin namlikni tiklash uchun mo'ljallangan yoki mo'ljallanmagan bo'lishi mumkin. Bu toifaga sharbatni quritish orqali olingan sabzavot kukunlari, masalan, pomidor kukuni va lavlagi kukuni ham kiradi.
35	04.2.2	Sirka, yog' yoki tuzli suvdagi meva va sabzavotlar. Xom sabzavot yoki mevalarga tuz, sirka va yog' eritmasi bilan ishlov berish orqali tayyorlangan, ularning saqlanishini ta'minlovchi oziq-ovqat mahsulotlari. Misol uchun: tuzlangan karam, tuzlangan bodring, zaytun, tuzlangan piyoz, tuzlangan gulkaram, tuzlangan sabzi, yog'dagi qo'ziqorinlar, tuzlangan artishok, tuzlangan olxo'ri, tuzlangan mango bodring va tuzlangan yams. Bu toifaga shuningdek, sirka, yog' yoki tuzli suvda tayyorlangan nordon-shirin konservalari ham kiradi.
36	04.2.3	Konservalangan (banka yoki shishalarda) meva va sabzavotlar. Yangi meva yoki sabzavotlarni tozalab, yuvib, suyuq muhitga solib, bankalarga, paketlarga, shisha idishlarga yoki boshqa idishlarga joylashtirilib, qizdirish yo'li bilan sterilizatsiya qilingan to'liq konservalangan mahsulot. Bu toifaga 04.2.4-toifaga tegishli bo'lgan kompotlar kirmaydi. Sousdagi sabzavotlardan iborat konserva mahsuloti tarkibiga ko'ra qisman 04.2.3 toifasiga kiradi va unga o'tish tamoyili qo'llanilishi mumkin bo'lgan ko'p tarkibli oziq-ovqat mahsuloti sifatida qaraladi.
37	04.2.4	05.4-toifadagi mahsulotlardan tashqari meva va sabzavot konservalari. Ushbu toifaga yuqori miqdordagi shakar bilan qaynoq suvda tayyorlangan meva yoki sabzavot pyurelari, pyureler, kompotlar va shunga o'xshash mahsulotlar, shuningdek butun yoki bo'laklangan meva yoki sabzavot yarim tayyor mahsulotlari kiradi. Bu toifaga sirka, yog' yoki tuzli suvdagi mahsulotlar (bunday mahsulotlar 04.2.2 toifasiga kiradi) hamda 04.2.3 toifasidagi mahsulotlar kirmaydi.
38	04.2.4.1	Kompotlardan tashqari meva va sabzavot konservalari. Bu toifaga 04.2 toifasining boshqa kichik toifalariga kirmaydigan qayta ishlangan meva va sabzavotlar kiradi. Ishlov berilgandan so'ng ularni muzlatish mumkin. "Qayta ishlangan meva va sabzavot konservalari" atamasi qizil mevali preservalar, dengiz suv o'tlari asosidagi yarim tayyor mahsulotlar, mikro suv o'tlari asosidagi yarim tayyor mahsulotlar, meva

		souslari, meva asosidagi siroplar, murabbo va jemlar, tayyor zaytun va zaytun asosidagi mahsulotlar, sabzavot pyurelari va sharbatlari kabi oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek kokos sutini o'z ichiga oladi. Meva bo'lmagan qo'shimchalar 5.4-toifaga kiritilgan. Shakar siroplari 11-toifaga kiritilgan. Xushbo'y ichimliklar tayyorlash uchun mo'ljallangan konsentrlangan meva siroplari 14.1.4-toifaga kiritilgan.
39	04.2.4.2	16-toifadagi mahsulotlardan tashqari kompotlar. Kompot - bir yoki bir nechta turdagi mevalarning iste'molga yaroqli qismini, butun yoki bo'laklangan holda, ezilgan yoki ezilmagan ko'rinishda, sezilarli darajada quyuqlashtirmasdan, issiqlik bilan ishlov berish orqali olinadigan mahsulot. Unga shakar, suv, olma vinosi, ziravorlar va limon sharbati qo'shilishi mumkin. Eng ko'p tarqalgan turi olma va shaftoli kompotidir.
40	04.2.5	Jemlar, jeleler, marmeladlar va ularga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari. Bu toifaga jemlar, jeleler, marmeladlar, jele marmeladlari, shakarli kashtan pyuresi va boshqa meva yoki sabzavot pastalari, shu jumladan kam kaloriyali va kam shakarli mahsulotlar kiradi. Ushbu mahsulotlardagi eruvchan quruq moddalar miqdori 60% va undan yuqori bo'ladi (qonunda ko'rsatilgan hollar bundan mustasno), bu refraktometr yordamida aniqlanadi, bunda shakari to'liq yoki qisman shirinlashtiruvchilar bilan almashtirilgan mahsulotlar bundan mustasno. Bu toifaga boshqa meva va sabzavotlardan tayyorlangan mahsulotlar, jumladan, kam kaloriyali oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, marmelad, yong'oq yog'i va yong'oq pastasi ham kiradi.
41	04.2.5.1	Ekstra-jemlar va ekstra-jeleler. Ekstra-jemlar - shakar, bir yoki bir nechta turdagi mevalarning konsentrlanmagan eti va suvning tegishli jelesimon quyuqlikka keltirilgan aralashmasi. Ekstra-jele - bir yoki bir nechta turdagi mevalarning shakar va sharbati hamda/yoki suvli ekstraktlarining jelesimon holatga keltirilgan aralashmasi. Umumiy qoidaga ko'ra, 1000 gramm tayyor ekstra-jem tayyorlash uchun ishlatiladigan meva eti miqdori 450 grammdan kam bo'lmasligi kerak. 1000 g tayyor ekstra-jele tayyorlash uchun ishlatiladigan meva sharbati va/yoki suvli ekstraktlar miqdori, odatda, kamida 450 g bo'lishi lozim.

42	04.2.5.2	Jemlar, jeleler, marmeladlar va shirin kashtan pyuresi. Ushbu turkumga quyidagilar kiradi: Jem - shakar, bir yoki bir necha turdagi meva eti va/yoki tegishli jelesimon konsistensiyali pyure hamda suv aralashmasidan iborat (1000 g tayyor mahsulot olish uchun ishlatiladigan meva eti va/yoki pyure miqdori, odatda, kamida 350 g bo'lishi kerak). Jele - shakar, bir yoki bir necha turdagi mevalarning suvli ekstraktlari aralashmasini jelesimon holatga keltirib tayyorlangan mahsulot. 1000 g tayyor mahsulot ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan sharbat va/yoki suvli ekstraktlar miqdori patoka ishlab chiqarish uchun ko'rsatilgan miqdordan kam bo'lmashligi kerak. Marmelad suv, shakar va sitrus mevalaridan olingan quyidagi mahsulotlarning bir yoki bir nechtasidan tarkib topgan aralashmadir: meva eti, pyure, sharbat, suvli ekstraktlar va po'stloq. 1000 g tayyor mahsulot tayyorlash uchun ishlatiladigan sitrus mevalarining miqdori 200 g dan kam bo'lmashligi, shundan kamida 75 g endokarpiydan olinishi lozim. "Jeleli marmelad" nomi mahsulot tarkibida oz miqdordagi mayda qilib to'g'ralgan po'stloqdan tashqari erimaydigan moddalar bo'lmaganda qo'llaniladi. Shakar qo'shilgan kashtan pyuresi suv, shakar va kamida 380 g kashtan pyuresidan iborat bo'lib, 1000 g tayyor mahsulot uchun tegishli quyuvchilikka keltiriladi. Marmelad - butun, bo'laklangan, to'g'ralgan, ezilgan yoki boshqa usulda ishlov berilgan mevalar bilan shakarni aralashma quyuv yoki yarim suyuv holatga kelguncha qaynatish orqali tayyorlanadigan mahsulotdir. Mevalar miqdori 30% dan kam bo'lmaydi, eruvchan quruq moddalar miqdori esa 40% dan 60% gacha bo'lib, refraktometr yordamida aniqlanadi.
43	04.2.5.3	Boshqa meva yoki sabzavot pastalari. Olxo'ri va olma povidlosi kabi barcha qolgan meva va sabzavot pastalarini o'z ichiga oladi.
44	04.2.5.4	Yong'oq yog'i va yong'oq pastalari Yong'oq moyi - yong'oqlarni maydalash orqali olinadigan pastasimon mahsulotdir. Tayyor mahsulotda yog' miqdori yuqori bo'lib, uni yog' kabi surtsa bo'ladi. Masalan: yeryong'oq pastasi (yeryong'oq yog'i qo'shilgan qovurilgan va maydalangan yeryong'oqdan tayyorlangan pasta), boshqa yong'oq moylari (misol uchun, keshyu yong'og'i moyi) va qovoq urug'i moyi. Ushbu toifaga 5.2-toifaga kiritilgan shirinlashtirilgan kashtan pyuresi va kakao asosidagi yong'oqlar kirmaydi.
45	04.2.6	Qayta ishlangan kartoshka mahsulotlari.

		Bu toifaga kartoshkadan tayyorlangan quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari kiradi: kartoshka fri, kartoshkadan tayyorlangan muzlatilgan yoki sovutilgan taomlar, shuningdek, suvsizlantirilgan kartoshka mahsulotlari (kartoshka pallalari, granulalari, kukuni). Bu toifaga 6.4.4-toifaga tegishli bo'lgan kartoshkali nyokkalar va 15.1-toifaga tegishli bo'lgan kartoshkali gazaklar kirmaydi.
46	05	Qandolat mahsulotlari. 5.1-toifadagi barcha kakao va shokolad mahsulotlari; 5.2-toifadagi tarkibida kakao bo'lgan yoki bo'lmagan boshqa qandolat mahsulotlari; 5.3-toifadagi saqich; 05.4-toifadagi shirin bezaklar va taqinchoqlarni o'z ichiga oladi.
47	05.1	Kakao va shokoladdantayyorlangan mahsulotlar. Bu toifaga kakao va shokoladdan tayyorlangan barcha turdagi oziq-ovqat mahsulotlari kiradi: kakao yog'i, kakao kukuni, yog'sizlantirilgan kakao kukuni, shokolad bo'lakchalari, shirinlashtirilgan kakao kukuni, shokolad, sutli shokolad, oilaviy sutli shokolad, oq shokolad, ichli shokolad, "a la taza" shokoladi, "familiar a la taza" shokoladi va shokoladli konfetlar.
48	05.2	Boshqa qandolat mahsulotlari, shu jumladan nafasni yangilovchi mikrokonfetlar. Bu toifaga 05.1, 05.3 va 05.4 toifalaridan tashqari konfet yoki shirinlik deb ataladigan barcha qandolat mahsulotlari kiradi. Ularga tarkibida shakar bor (shakarli qandolat mahsulotlari) yoki yo'q (past kaloriyalik va shakarsiz mahsulotlar), kakaoli yoki kakaosiz barcha turdagi mahsulotlar kiradi. Qattiq qandolat mahsulotlari/konfetlar, masalan, so'riladigan va chaynaladigan konfetlar, yumshoq qandolat mahsulotlari/jeleli qandolatlar, masalan, jelatin/mevali saqichlar/chaynaladigan konfetlar, jele va shakar ko'pigi/zefir, shuningdek pomadka va fudj, qizilmiya, karamel, iris, nuga, martsipan, turrón va holva kabi mahsulotlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu toifaga qandolat mahsulotlari (shakar, kraxmal, kakao, quruq mevalar asosidagi), sendvich-pastalar (kakao, sut, quruq mevalar, yog'och asosidagi), sukatlar, shakarlangan va glazur qoplangan meva va sabzavotlar, popkorndan tayyorlangan shirin gazaklar, qayta ishlangan shokolad, shokolad o'rnini bosuvchilar va kakao asosidagi oziq-ovqat mahsulotlari, hamda tomoq uchun kuchli xushbo'ylantirilgan so'riladigan konfetlar va nafasni yangilovchi mikrokonfetlar (nafasni yangilovchi, xarakterli o'lchami 1,5 sm dan oshmaydigan konfetlar) kiradi.
49	05.3	Saqich.

		Ushbu toifaga tabiiy yoki sun'iy saqich asosida tayyorlangan, tarkibida xushbo'ylovchi va ta'm beruvchi qo'shimchalar, shirinlashtiruvchilar (oziq-ovqat yoki nooziq-ovqat) hamda boshqa tarkibiy qismlar mavjud bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Bularga pufak hosil qiluvchi saqichlar va nafasni yangilovchi chaynaladigan oziq-ovqat mahsulotlari ham kiradi.
50	05.4	Bezaklar (dekor), glazurlar va to'ldirmalar (nachinka)ni o'z ichiga oladi, 4.2.4-toifadagi meva asosidagi to'ldirmalar (nachinka)dan tashqari. Bu toifaga 5.2-bandda belgilanganidek, odatda oziq-ovqat mahsulotlarini bezash, qoplash va/yoki to'ldirish uchun ishlatiladigan barcha qandolat mahsulotlari kiradi, masalan, qandolat pishiriqlari, muzqaymoq, konfetlar va boshqa shirinliklar. Ushbu toifaga, shuningdek, meva bo'lmagan to'ldirmalar (nachinka), glazurlar, qo'shimchalar, siroplar, shirin souslar va qo'shimchalar, hamda oziq-ovqat mahsulotlarini bezash, qoplash va to'ldirish uchun mo'ljallangan xushbo'ylangan ko'pirtirma qaymoqlar (aralastirgich, ko'pirtgich yoki sanchqi yordamida yengil va havoli konsistentsiyagacha ko'pirtirilgan, har qanday ta'm beruvchi qo'shimchalar va/yoki xushbo'ylantirgichlar qo'shilgan qaymoqlar), xushbo'ylangan kremlar va ballonlardagi glazurlar kiradi. Ushbu toifaga quyidagi oziq-ovqat mahsulotlari kirmaydi: - 8.3.3-toifa; - 5.1-toifa, agar ularga kakao va shokolad mahsulotlariga qo'yiladigan talablar tatbiq etilmasa, oziq-ovqat mahsulotlarini to'ldirish, bezash va qoplash uchun ishlatiladigan oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno; - 11-toifa; - 04.2.4-toifadagi meva asosidagi to'ldirmalar (nachinka). Oziq-ovqat qo'shimchalari (masalan, bo'yoqlar, glazurlar) va boshqa oziq-ovqat qo'shimchalari yoki tashuvchi sifatida ishlatiladigan oziq-ovqat ingredientlarini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan yarim tayyor mahsulotlar oziq-ovqat mahsulotlarining ushbu toifasiga kirmaydi.
51	06	Yormalar va don mahsulotlari. Ushbu toifaga, 07-toifadagi mahsulotlardan tashqari, ishlov berilmagan va ishlov berilgan boshqoli o'simliklardan olingan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, ba'zi hollarda ildizmevalar va tuganakli o'simliklar, dukkaklilar, donli ekinlar va dukkakli o'simliklardan olingan, toifalarda tavsiflangan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. 06.2.2-kichik toifa boshqa o'simlik manbalaridan olingan kraxmallarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

52	06.1	Butun, maydalangan yoki yalpoq don Bu toifaga butun, tozalangan, ishlov berilmagan donlar va yormalar kiradi, ular muzlatilgan yoki muzlatilmagan bo'lishi mumkin. Misol uchun: arpa, makkajo'xori, suli, javdar, polba, guruch (jumladan, boyitilgan va bug'langan guruch), jo'xori, soya va bug'doy.
53	06.2	Un, boshqa maydalangan mahsulotlar va kraxmallar. Boshqali o'simliklardan (ba'zi hollarda ildizmevalar, tuganaklar va dukkakli o'simliklardan) tayyorlangan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari
54	06.2.1	Un. O'simlik manbalaridan olingan asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, masalan, donli ekinlar, ildizmevalar, tuganakli ekinlar (masalan, manioka), dukkaklilar, soya dukkaklari, kartoshka, kraxmaldan tashqari
55	06.2.2	Kraxmallar. Kraxmal D-glyukozaning polimeri bo'lib, u ba'zi o'simlik turlarida, ayniqsa urug'larda (masalan, boshqali, dukkakli, makkajo'xori, bug'doy, guruch, loviya, no'xat) va tuganaklarda (masalan, kartoshkada) donador shaklda mavjud. Polimer alfa-glikozid bog'lari orqali kondensatsiyalangan D-angidroglyukopiranoza bo'g'inlaridan tashkil topgan. Har bir xomashyo turi uchun o'ziga xos jarayonlar bilan tavsiflanadi. Bu toifaga maltodekstrinlar ham kiradi.
56	06.3	Quruq nonushtalar. Bu toifaga barcha iste'molga tayyor bo'lgan tez va oddiy tayyorlanadigan quruq nonushtalar, jumladan yormalar kiradi. Misol uchun: granola, tez tayyorlanadigan suli bo'tqasi, makkajo'xori yormasi, bug'doy yoki guruch yormasi, ko'p donli (masalan, guruch, bug'doy va makkajo'xori), myusli, soya, un yoki kepkadan tayyorlangan quruq nonushtalar, don uni yoki kukunidan ekstruziya qilingan quruq nonushtalar.
57	06.4	Makaron mahsulotlari. Makaron mahsulotlari qattiq bug'doy navlarining uni/manniy yormasidan va suv hamda/yoki tuxumdan tayyorlangan xamirni ekstruziya qilish yoki shakllantirish orqali olingan har qanday turdagi qoliplangan mahsulotdir. Makaron mahsulotlari quritilgan yoki quritilmagan bo'lishi mumkin. Boshqa boshqali o'simliklar unidan ham foydalanish mumkin. Xamirga ma'lum bir tuzilish, rang, konsistensiya yoki ozuqaviy xususiyatlarni berish uchun boshqa ingredientlar (masalan, sabzavotlar yoki ziravorlar) ham qo'shilishi mumkin.

58	06.4.1	Yangi makaron mahsulotlari. Bu toifaga ishlab chiqarish jarayonida konservalash va gigiyenik maqsadlarda issiqlik bilan ishlov beriladigan makaron mahsulotlari kiradi. Yangi xamirning namlik miqdori taxminan 25% ni tashkil etadi. Ushbu toifaga makaron mahsulotlari asosidagi tayyor taomlar kirmaydi.
59	06.4.2	Quruq makaron mahsulotlari. Bu toifaga quruq modda bo'yicha namligi odatda 13% dan oshmaydigan makaron mahsulotlari kiradi. Bu toifaga shuningdek quruq, oldindan qaynatilgan, issiqlik bilan ishlov berilgan (oldindan tayyorlangan) makaron mahsulotlari ham kiradi. Ushbu toifaga makaron mahsulotlari asosidagi tayyor taomlar kirmaydi.
60	06.4.3	Yangi tayyorlangan makaron mahsulotlari. Bu toifaga issiqlik bilan ishlov berilgan yangi makaron mahsulotlari (tayyorlangan) kiradi. Ushbu toifaga makaron mahsulotlari asosidagi tayyor taomlar kirmaydi.
61	06.4.4	Kartoshkali nyokki. Bu toifaga yuzasida ma'lum bir chiziq bo'lgan yoki bo'lmagan, kartoshka va/yoki bug'doy unidan, va/yoki manna yormasidan, va/yoki tuzdan tayyorlangan xamirdan yasalgan kichik sharchalar yoki silindrsimon tayoqchalar kiradi. Ularga tuxum, sut, sabzavotlar va oz miqdorda yog' qo'shish mumkin. Bu toifaga oldindan tayyorlangan kartoshkali nyokki va sovutilgan nyokki ham kiradi.
62	06.4.5	To'ldirma makaron mahsulotlari uchun nachinkalar (ravioli va shunga o'xshash mahsulotlar) Yangi, qaynatilgan yoki ziravorlangan go'sht, baliq, sabzavotlar, pishloq, rikotta pishlog'i va boshqa turli xil ingredientlarning tegishli ravishda maydalangan hamda tuz, non uvog'i, kartoshka parchalari va ziravorlar bilan aralashtirilgan qorishmalar
63	06.5	Makaron mahsulotlari Bu toifaga ishlov berilgan (ya'ni isitilgan, qaynatilgan, bug'da pishirilgan, pishirilgan, oldindan jelatinlashtirilgan yoki muzlatilgan) oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Ular odatda ishlov berilgandan so'ng quritiladi va asosan don va suvdan tayyorlangan xamirdan iborat bo'ladi. Iste'molchiga sotishdan oldin oldindan jelatinlashtirilgan, isitilgan va quritilgan tez tayyorlanadigan makaron mahsulotlari ham shu toifaga kiradi.
64	06.6	Suxarilar Bu toifaga non uvog'i, qovurish uchun suxarilar va odatda go'sht, baliq, parranda go'shti, kartoshka taomlari va shunga o'xshash mahsulotlarni suxarilash uchun ishlatiladigan xamir

		kiradi.
65	06.7	Yarim tayyor va qayta ishlangan donli mahsulotlar Bu toifaga guruchdan tayyorlangan va ishlov berilgan mahsulotlar, shu jumladan guruch nonlari (faqat sharqona turi) va boshqa oldindan tayyorlangan donli mahsulotlar, masalan, tez pishiriladigan guruch, polenta va knedliklar kiradi.
66	07	Non-bulka mahsulotlari Bu toifaga asosan don yoki boshqoli o'simliklar unidan tayyorlanadigan va ishlov beriladigan, masalan, pishiriladigan, bug'da pishiriladigan yoki ekstruderlanadigan mahsulotlar kiradi. U 7.1 va 7.2-toifalarni o'z ichiga oladi, ularning har biri tayyor xamirni ham qamrab olishi mumkin.
67	07.1	Non va non mahsulotlari. Bu toifaga barcha keng tarqalgan non mahsulotlari kiradi: non (masalan, bug'doy noni, javdar noni, butun donli non, ko'p donli non, solod noni, javdar unidan tayyorlangan non), bulochkalar (gamburger bulochkalari, butun bug'doydan tayyorlangan bulochkalar, sutli bulochkalar), rogaliklar, pita, meksika bulochkalari va bug'da pishirilgan yassi nonlar. Bu toifaga non asosidagi mahsulotlar, jumladan krutonlar, non to'ldirgichlari, tayyor xamir (6.6-toifaga kiritilgan xamir va suxari aralashmalaridan tashqari) ham kiradi.
68	07.1.1	Faqat quyidagi tarkibiy qismlardan tayyorlangan non: bug'doy uni, ichimlik suvi, achitqi yoki xamirturush, tuz.
69	07.1.2	An'anaviy fransuz noni "Pain courant frangais". Asosan quyidagi tarkibiy qismlardan tayyorlanadigan non: novvoylik uni (bug'doy, javdar, meslin), ichimlik suvi, achitqi va/yoki xamirturush, tuz. Boshqa ingredientlar texnologik maqsadlarda umumiy milliy tamoyillarga muvofiq qo'shilishi mumkin. Oq non (baton) - xamirni qorish, shakl berish, oshirish va pishirish yo'li bilan tayyorlangan, achitqi yoki achitqi o'rmini bosuvchi qo'shilgan, 100% bug'doy unidan tayyorlangan oq non; 85% yarim oq bug'doy uni va 15% och rangli javdar unidan tashkil topgan xamirni qorish, shakl berish, oshirish va pishirish orqali tayyorlangan, achitqi yoki achitqi o'rmini bosuvchi qo'shilgan yarim oq non.
70	07.2	Unli qandolat mahsulotlari. Ushbu toifaga shirin, sho'r va o'tkir ta'mli oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Bularga pechenye, tort, ponchik, biskvit, makaronlar (ya'ni, odatda tuxum oqidan tayyorlanadigan yumaloq mahsulotlar), suxari, donli batonchiklar, pirog, bulochka, pirojniy, vafli, keks, tart,

		pryanik, ekler, kruassan, shuningdek, kreker, non va non o'rnini bosuvchi mahsulotlar, jumladan tayyor xamir* va uni tayyorlash uchun aralashmalar* ham kiradi. Bu toifaga yana biskvitli pirojniylar, essoblaten va vafli qog'ozi, hamda iste'mol qilinadigan qog'oz ham kiradi ("iste'mol qilinadigan qog'oz" qog'ozga emas, balki "iste'mol qilinadigan qog'oz" nomi ostida sotiladigan va odatda quritilgan kraxmal varaqlaridan iborat bo'lgan yoki turli qalinlik va zichlikdagi guruch yoki kartoshka kraxmalidan tayyorlangan, shundayligicha iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlariga tegishli). Bu toifaga krekerlar - quruq pechenye (boshqoqli donlar asosidagi pechenye), masalan, sodali krekerlar, javdar chipslari va matsa ham kiradi. Unli qandolat mahsulotlari uchun bezaklar (dekor), qiyomlar va to'ldirmalar (nachinka)ning xususiyatiga qarab, ular tegishli toifaga, masalan, 04.2.5 yoki 05.4 ga kiritiladi.
71	08	Go'sht Bu toifaga go'sht, parranda va ov hayvonlaridan tayyorlangan barcha turdagi mahsulotlar kiradi. Bu toifaga go'sht submahsulotlari va qobiqlari ham kiradi.
72	08.1	Yangi go'sht, yarim tayyor go'sht mahsulotlari bundan mustasno. Ishlov berilmagan xom go'sht, parranda va ov hayvonlari go'shti, kepek va qiyma. Misollar: mol va cho'chqa go'shti submahsulotlari, yangi qon, yangi butun jo'jalar va ularning qismlari, mol go'shti, cho'chqa go'shti, bug'u go'shti yoki qo'y go'shti kabi yangi go'shtlar, steyklar, mol ichki a'zolari (masalan, yurak, buyrak, ichaklar), cho'chqa tili, cho'chqa oshqozoni.
73	08.2	Go'sht yarimfabrikatlari. Yangi go'sht, shu jumladan bo'laklarga bo'lingan, boshqa mahsulotlar, ziravorlar yoki qo'shimchalar qo'shilgan yoki go'sht mushak tolalarining ichki tuzilishini yangi go'shtning xususiyatlari yo'qolmaydigan darajada o'zgartirish uchun yetarli bo'lmagan jarayonlarga duchor bo'lgan go'sht. Go'sht yarimfabrikatlari "ishlov berilmagan oziq-ovqat mahsulotlari" yoki "ishlov berilgan oziq-ovqat mahsulotlari" deb hisoblanishi mumkin.
74	08.3	Go'sht mahsulotlari. Qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari - bu go'shtni qayta ishlash yoki bunday qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlarini mahsulotning kesimi yangi go'sht xususiyatlarini ko'rsatmaydigan darajagacha qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlardir. Qayta ishlash deganda dastlabki mahsulotni sezilarli darajada o'zgartiradigan har qanday harakat,

		jumladan isitish, dudlash, quritish, yetiltirish, marinadlash, ekstraktsiya qilish, ekstruziya yoki bu jarayonlarning kombinatsiyasi tushuniladi.
75	08.3.1	Issiqlik bilan ishlov berilmagan qayta ishlangan go'sht. Bu toifaga go'shtni saqlash va yaroqlilik muddatini uzaytirish uchun ishlatiladigan bir nechta qayta ishlash usullari (masalan, quritish, tuzlash, dudlash, fermentatsiya, marinadlash, konservalash, yetiltirish) kiradi. Misol tariqasida quritilgan va xom quritilgan vetchina, fermentlangan va xom quritilgan kolbasani keltirish mumkin.
76	08.3.2	Termik ishlov berilgan qayta ishlangan go'sht. Tayyorlangan (jumladan dimlangan va qaynatilgan, dudlangan va qaynatilgan, quritilgan va qaynatilgan), issiqlik bilan ishlov berilgan (jumladan sterilizatsiya qilingan) va konservalangan go'sht qismlarini o'z ichiga oladi. Bunga misollar: fua-gra va pashtetlar, go'sht pastalari, sterilizatsiya qilingan kolbasalar, quritilgan va qaynatilgan cho'chqa soni, quritilgan va qaynatilgan cho'chqa yelkasi, konservalangan tovuq go'shti va tsukudani - soya sousida qaynatilgan go'sht bo'laklari.
77	08.3.3	Go'sht uchun qobiqlar, qoplamalar va bezaklar. "Go'sht bezaklari" atamasi go'sht mahsulotlari yuzasini bezash uchun ishlatiladigan oziq-ovqat mahsulotlarini anglatadi. "Qobiq" atamasi kolbasa aralashmasi uchun mo'ljallangan, kollagen, selluloza yoki tabiiy materiallardan (masalan, cho'chqa yoki qo'y ichaklaridan) tayyorlangan iste'mol qilinadigan naychalarni bildiradi. Bu toifaga quyidagilar kiradi: go'sht mahsulotlari uchun jelatinli glazur, shuningdek go'sht uchun glazur. Oziq-ovqat qo'shimchalari (masalan, bo'yoqlar) va tarkibida boshqa oziq-ovqat qo'shimchalari yoki tashuvchi sifatida ishlatiladigan oziq-ovqat ingrediylari bo'lishi mumkin bo'lgan preparatlarning o'zi oziq-ovqat mahsulotlarining ushbu toifasiga kirmaydi.
78	08.3.4	Nitritlar va nitratlarga nisbatan maxsus me'yorlarga ega bo'lgan an'anaviy go'sht mahsulotlari
79	08.3.4.1	An'anaviy botirib tuzlash mahsulotlari Nitritlar va/yoki nitratlar, tuz va boshqa tarkibiy qismlar mavjud bo'lgan tuzli eritmaga botirib tuzlangan go'sht mahsulotlari
80	08.3.4.2	Quruq tuzlash usulida tayyorlangan an'anaviy xomligicha quritilgan mahsulotlar (quruq tuzlash jarayoni nitritlar va/yoki nitratlar, tuz va boshqa tarkibiy qismlardan iborat tuzlash

		aralashmasini go'sht yuzasiga quruq holda qo'llashni o'z ichiga oladi, so'ngra barqarorlashtirish/yetiltirish davri o'tkaziladi)
81	08.3.4.3	Boshqa an'anaviy tuzlash mahsulotlari (jumladan, mahsulot tarkibiga nitritlar va/yoki nitratlar kirganda yoki tuzlash eritmasi tayyorlashdan oldin mahsulotga in'yeksiya qilinganda birgalikda qo'llaniladigan botirish va quruq tuzlash jarayonlari)
82	09	Baliq va baliq mahsulotlari. Bu turkumga baliqlar va baliq mahsulotlari, shuningdek, mollyuskalar, qisqichbaqasimonlar va ninaterililar kiradi.
83	09.1	Qayta ishlanmagan baliq va baliq mahsulotlari. Bu toifaga qayta ishlanmagan baliq va baliq mahsulotlari kiradi. Mahsulotlar tozalanishi, ichak-cho'qlari olinishi, boshi kesilishi, filelanishi, terisi shilinishi, bo'laklarga bo'linishi va hokazo amallar bajarilishi mumkin. Oziq-ovqat mahsulotlari sovutilgan, muzlatilgan va chuqur muzlatilgan bo'lishi mumkin. File - iste'molga yaroqli baliq turining tanasidan umurtqa pog'onasiga parallel ravishda kesilgan, o'lchami va shakli bo'yicha simmetrik baliq bo'lagi bo'lib, bunday filening qismlari qadoqlashni osonlashtirish uchun kesiladi. File teri bilan yoki terisiz, suyak bilan yoki suyaksiz, lekin umurtqasiz sotilishi mumkin.
84	09.1.1	Qayta ishlanmagan baliq Bu toifaga turli guruhdagi baliqlar kiradi. Ushbu toifadagi mahsulotlar dengiz, ko'l yoki boshqa suv havzalaridan ovlanganidan so'ng buzilish va parchalanishning oldini olish uchun sovutish, muzlatish yoki muzga qadoqlashdan tashqari boshqa ishlov berilmaydi.
85	09.1.2	Ishlov berilmagan mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar Bu toifaga mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar guruhi kiradi. Bular ishlov berilmagan oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib, dengiz, ko'l yoki boshqa suv havzalaridan ovlangandan so'ng buzilish va parchalanishning oldini olish uchun sovutilgan, muzlatilgan yoki muzga qadoqlangan mahsulotlar bundan mustasno.
86	09.2	Qayta ishlangan baliq va baliq mahsulotlari, shu jumladan qisqichbaqasimonlar va mollyuskalar. Ushbu toifaga dudlangan, fermentlangan, marinadlangan, issiqlik bilan ishlov berilgan va/yoki tuzlangan baliq hamda baliq mahsulotlari, shu jumladan mollyuskalar va qisqichbaqasimonlar kiradi. Bu mahsulotlar suyuqlik bilan yoki suyuqliksiz (masalan,

		ichimlik suvi, tuzli suv, yog‘) idishlarga joylashtirilishi, shuningdek vakuum yoki o‘zgartirilgan gaz muhitida qadoqlanishi mumkin. Bu toifaga baliq oqsillaridan tayyorlanadigan va turli shakllarda qayta ishlanadigan surimi va shunga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari, baliq masalliqlari, baliq va molluska pastalari ham kiradi. Bundan tashqari, qaynatilgan yoki dudlangan losos ham mavjud. Mahsulotlarni ishlov berishdan so‘ng muzlatish mumkin. Yarim konservalangan baliq va baliq mahsulotlari: marinadlash, tuzlash va qisman qaynatish kabi usullar bilan ishlov berilgan, yaroqlilik muddati cheklangan va sovutgichda ($< 10^{\circ}\text{C}$) saqlashni talab qiladigan oziq-ovqat mahsulotlari. To‘liq konservalangan baliq va baliq mahsulotlari: pasterizatsiya yoki bug‘li avtoklavda ishlov berish usuli bilan tayyorlangan va sterillikni ta‘minlash uchun vakuumli idishga qadoqlangan, uzoq muddat saqlanadigan oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu mahsulotlar o‘z sharbatiga qadoqlanishi yoki ularga yog‘ yoxud sous qo‘shilishi mumkin.
87	09.3	Baliq ikrasi. Ikra odatda yuviladi, tuzlanadi va tiniq bo‘lguncha saqlanadi. So‘ngra ikra shisha yoki boshqa mos idishlarga joylanadi. "Ikra" atamasi faqat osyotr baliqlarining (masalan, beluga) ikrasiga nisbatan qo‘llaniladi. Ikra o‘rmini bosuvchilar turli dengiz va chuchuk suv baliqlari (osyotr, seld, sevryuga kabi) ikralaridan tayyorlanib, tuzlanadi, ziravorlar qo‘shiladi, bo‘yaladi va konservantlar bilan ishlov beriladi. Ba’zida ikrani pasterizatsiya qilish mumkin. Pishirilgan yoki dudlangan ikra mahsulotlari va ikra pastasi 9.2-toifaga kiradi; Baliqlarning yangi ikrasi 9.1-toifaga kiradi.
88	10	Tuxum va tuxum mahsulotlari Ushbu toifaga po‘choqli barcha yangi tuxumlar va boshqa tuxum mahsulotlari kiradi.
89	10.1	Qayta ishlanmagan tuxumlar Po‘choqli qayta ishlanmagan tuxumlarni o‘z ichiga oladi.
90	10.2	Qayta ishlangan tuxum va tuxum mahsulotlari Bu toifaga muzlatish, suvsizlantirish, quritish yoki quyuqlashtirish mumkin bo‘lgan tuxum va tuxum mahsulotlari, shuningdek, qaynatilgan tuxumlar kiradi.
91	11	Shakar, sirop, asal va oshxona shirinlashtirgichlari O‘z ichiga barcha standartlashtirilgan shakarlar (11.1), standartlashtirilmagan oziq-ovqat mahsulotlari (11.2), asal (11.3) va oshxona shirinlashtirgichlarini (11.4) oladi.
92	11.1	Shakarlar va siroplar

		Bu toifaga yarim oq shakar, shakar yoki oq shakar, juda oq shakar, shakar eritmasi, inversiya qilingan shakar eritmasi, inversiya qilingan shakar siropi, glyukoza siropi, quruq glyukoza siropi, dekstroza yoki dekstroza monogidрати, dekstroza yoki suvsiz dekstroza, fruktoza kiradi. Shakar kukuni, sepma shakar va shakar boshchasi bundan mustasno.
93	11.2	Boshqa shakarlar va siroplar. Ushbu toifaga xushbo‘ylantirilmagan shakarlar va siroplar, jumladan shakar tozalash jarayonining yonaki mahsulotlari, zarang shirasi, shakar kukuni yoki qandolat shakari kiradi. 07.2-toifadagi pechenye va mahsulotlar uchun rangli shakar to‘ldirgichlari kabi maxsus shakarlar va siroplar hamda 5.4-toifadagi "Bezak uchun qoplamalar va to‘ldirgichlar"ga kiradigan muzqaymoq uchun xushbo‘yangan siroplar bundan mustasno.
94	11.3	Asal. Asal - bu Apis mellifera asalarilari tomonidan o‘simlik nektarlarining muayyan moddalarini yoki o‘simliklarning tirik qismlarining ajratmalarini yoxud o‘simliklarning tirik qismlaridan o‘simlik shirasini so‘radigan hasharotlarning ajratmalarini birlashtirish orqali ishlab chiqariladigan tabiiy shirin modda bo‘lib, asalarilar tomonidan to‘planadi va keyinchalik ajratib olish, suvsizlantirish va uyalarda saqlash uchun qo‘yiladi. Bu toifaga asalning kelib chiqishi va ishlab chiqarish/taqdim etish usuli bo‘yicha asosiy turlari, jumladan qandolat asali ham kiradi.
95	11.4	Oshxona shirinlashtiruvchilari
96	11.4.1	Oshxona uchun suyuq shirinlashtiruvchilar
97	11.4.2	Kukunsimon oshxona shirinlashtiruvchilari
98	11.4.3	Tabletka shaklidagi oshxona shirinlashtiruvchilari. Bu toifaga iste‘mol qilishdan oldin suyuqlikda eritish uchun mo‘ljallangan tabletka shaklida sotiladigan shirinlashtiruvchilar kiradi.
99	12	Tuzlar, ziravorlar, sho‘rvalar, qaylalar, salatlar va oqsilli mahsulotlar. Bu toifaga ta‘m va hidni yaxshilash uchun ovqatga qo‘shiladigan oziq-ovqat mahsulotlari (tuz va tuz o‘rnini bosuvchilar; giyohlar, ziravorlar, xushbo‘y o‘tlar va ziravorlar, sirka va xantal), alohida tayyorlangan taomlar hamda asosan soya yoki boshqa manbalardan olingan oqsil tarkibli oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
100	12.1	Tuz va tuz o‘rnini bosuvchilar. Bu toifaga osh tuzi (natriy xlorid) va tuz o‘rnini bosuvchilar kiradi. Ushbu oziq-ovqat mahsulotlari tarkibida ammoniy xlorid va kaliy xlorid bo‘lishi mumkin.

101	12.1.1	Tuz. Bunga osh tuzi, yod, ftor va/yoki foliy kislotasi bilan boyitilgan tuz, shuningdek, dendrit (oshxona) tuzi kiradi.
102	12.1.2	Tuz o‘rnini bosuvchilar. Tuz o‘rnini bosuvchilar - oziq-ovqat mahsulotlari, taomlar va mahsulotlarda tuzga muqobil sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan, tarkibida natriy miqdori kamaytirilgan aralashmalardir.
103	12.2	Giyohlar, ziravorlar, xushbo‘y o‘tlar. Bu toifaga mahsulot, taom va mahsulotlarning xushbo‘yligi va ta‘mini kuchaytirish uchun ishlatiladigan oziq-ovqat qo‘shimchalari kiradi.
104	12.2.1	Giyohlar va ziravorlar. Giyohlar va ziravorlar o‘simlik manbalaridan olinadi, ular quritilgan, maydalangan yoki butun holda bo‘lishi mumkin. Giyohlar va ziravorlar o‘simliklarning iste‘mol qilinadigan qismlari bo‘lib, ular an‘anaviy ravishda taomning xushbo‘yligi yoki ta‘mini kuchaytirish uchun o‘zlarining tabiiy ta‘m va xushbo‘y xususiyatlari tufayli ovqatga qo‘shiladi. O‘tlar asosan o‘simliklarning barglaridan, ba‘zan esa poyasidan iborat bo‘ladi; Ularga kinza, mayoran, petrushka, rayhon, oregano, rozmarin, estragon, kervel, lavr bargi, yalpiz yoki timyan kabi o‘tlar misol bo‘ladi. Ziravorlar deb an‘anaviy oziq-ovqat mahsulotlari hisoblangan piyoz, sarimsoqpiyoz va selderey kabi o‘simliklardan tashqari, quritilgan, xushbo‘y, achchiq, iste‘mol qilinadigan har qanday sabzavot yoki o‘tlarga aytiladi. Bu o‘simlikning bir qismi yoki shu qismdan olingan kukun bo‘lib, ovqatga ta‘m va hid berish uchun qo‘shiladi. Ziravorlar nafaqat o‘tlardan, balki o‘simliklarning boshqa qismlaridan ham tayyorlanadi: masalan, urug‘lar, po‘stloq, ildizlar, gullar va mevalardan. Ziravorlarga quyidagilar misol bo‘ladi: muskat yong‘og‘i, zira, kardamon va kashnich (urug‘lari), kassiya va dolchin (po‘stlog‘i), zanjabil (maydalangan), qalampirmunchoq (gul g‘unchalari va meva po‘stlog‘i), qora, oq va qizil qalampir, xushbo‘y qalampir, badyan (yulduzsimon anis). Ularning ovqatdagi asosiy vazifasi mahsulotning ozuqaviy qiymatini oshirish emas, balki ta‘mini yaxshilashdir. Ushbu toifaga muzlatilgan o‘tlar va xushbo‘y moddalar, faqat o‘tlar va ziravorlardan iborat aralashmalar, shuningdek, alohida mahsulotlar uchun cheklangan miqdorda ruxsat etilgan oziq-ovqat qo‘shimchalari kiradi. O‘tlarni quritish jarayonida dudlash mumkin.

		Yangi holda taqdim etilgan o'tlar 4.1 "Ishlov berilmagan meva va sabzavotlar" toifasiga kiradi.
105	12.2.2	Ziravorlar. Ziravorlar - bu oziq-ovqatga uning ta'mini, ozuqaviyligini va/yoki zarur bo'lganda funkcionalligini yaxshilash uchun qo'shiladigan oziq-ovqat tarkibiy qismlarining aralashmasidir. Ular odatda bir yoki bir nechta o't va/yoki ziravorlarni, shuningdek ta'mni kuchaytiruvchi yoki xushbo'y hid beruvchi boshqa ingredientlarni o'z ichiga oladi. Ziravorlar odatda ovqatlarga (taom va mahsulotlarga) o'ziga xos ta'm berish yoki hidini kuchaytirish uchun qo'shiladi. "Ziravorlar" atamasi piyoz tuzi, sarimsoq tuzi, sharq ziravorlari aralashmasi (dasi) va guruch uchun ziravorlar (masalan, furikake - dengiz o'tlarining quritilgan bo'laklari, kunjut urug'lari va ziravorlar aralashmasi) kabi ziravorlarni o'z ichiga oladi, lekin ketchup, mayonez, xantal yoki qo'shimchalar kabi ziravorlarni o'z ichiga olmaydi.
106	12.3	Sirka va suyultirilgan sirka kislotasi (hajm bo'yicha 4-30%) Sirka - bu qishloq xo'jaligi kelib chiqishiga ega suyuqliklar yoki boshqa moddalarning (masalan, mevalar, donli ekinlar, meva vinolari, sidr, distillangan spirt, solod) spirtli va/yoki sirka kislotali biyg'ish jarayoni natijasida yoki solod sirkasini past bosim ostida haydash orqali olinadigan suyuqlikdir. Ta'm berish uchun o'simliklar yoki o'simlik qismlari, jumladan ziravorlar va mevalar, shakar, tuz, asal va meva sharbatlari qo'shilishi mumkin. Bu toifaga faqat sirka sifatida ishlatiladigan suyultirilgan sirka kislotasi (4-30%) kiradi. Ushbu toifaga 14.2.2 toifadagi vino sirkasi kirmaydi.
107	12.4	Xantal - maydalangan, ko'pincha yog'sizlantirilgan xantal urug'larini ichimlik suvi, sirka, tuz, uzum sharbati, meva sharbati, spirtli yoki boshqa ichimliklar, shuningdek, boshqa ziravorlar bilan aralashtirib pasta shaklida tayyorlangan o'tkir sous hisoblanadi.
108	12.5	Sho'rvalar va bulonlar. Bu toifaga iste'molga tayyor sho'rvalar va quyultirilgan (masalan, kukun yoki yarim quruq) mahsulotlar kiradi. Ularni iste'mol qilishdan oldin suv qo'shib tayyorlash lozim.
109	12.6	Souslar Bu toifaga iste'molga tayyor, quritilgan yoki konsentrlangan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Bularga souslar, ziravorlar, zaytun moyi asosidagi qo'shimchalar, mayonez, ketchup va tomat asosidagi souslar, salat uchun qo'shimchalar, ziravorlar, marinadlar va shunga

		o'xshash mahsulotlar kiradi. Emulsiyalangan souslar, kamida qisman, yog' yoki moyning suvdagi emulsiyasiga asoslangan. Emulsiyalanmagan souslarga, xususan, barbekyu sousi, tomat ketchupi, pishloq sousi, chili sousi, nordon-shirin botirma sousi va boshqalar kiradi. Bu toifaga souslar uchun sabzavot asoslari (4.2-toifaga kiritilgan) hamda 5.4-toifaga tegishli mahsulotlar, masalan, mevali bo'lmagan to'ldirmalar (nachinka), souslar, ustki qo'shimchalar, siroplar, bezatish, qoplash va/yoki to'ldirish uchun shirin souslar kirmaydi. Bu toifaga 8.3.3-toifasi bilan qamrab olingan go'sht mahsulotlari uchun jelesimon qoplamalar, shuningdek go'shtli glazurlar kirmaydi.
110	12.7	Salatlar va gazakbop buterbrod uchun surtmalar. Bu turkumga tayyor yoki marinadlangan salatlar, pasta salatlar, go'shtli salatlar yoki baliqli salatlar kiradi. Kartoshkali salat, baqlajonli salat, dzadziki, xumus va shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari sabzavotli salat yoki sendvichlar uchun surtma sifatida hisoblanadi.
111	12.8	Xamirturush va xamirturush mahsulotlari. Bu turkumga non yopish uchun ishlatiladigan xamirturush va non mahsulotlari hamda spirtli ichimliklar ishlab chiqarishda qo'llaniladigan achitqilar kiradi. Bunga xamirturush hosilalari, masalan, xamirturush ekstrakti ham kiradi.
112	12.9	1.8-toifaga kiritilganlaridan tashqari oqsilli mahsulotlar. Bu toifaga oqsilli mahsulotlar yoki go'sht, baliq yoki sut kabi standart oziq-ovqat mahsulotlarining o'rnini bosuvchi mahsulotlar, shu jumladan xushbo'ylantirilmagan jelatin va soya ichimliklari kiradi. Ushbu mahsulotlarda ta'mni yaxshilash uchun shakar va/yoki xushbo'ylagichlar bo'lishi mumkin, ammo ular yaqqol shirin ta'm va/yoki hidga ega emas.
113	13	Alohida parhez ehtiyojlari bo'lgan insonlar iste'moli uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari. Bu toifaga oddiy iste'mol uchun mo'ljallangan oziq-ovqatlardan o'zining maxsus tarkibi yoki ishlab chiqarish jarayoni bilan farq qiladigan, muayyan ovqatlanish maqsadlariga mos keladigan va shu moslikni hisobga olgan holda sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
114	13.1	Chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari. Bu toifaga boshlang'ich va keyingi ovqatlanish uchun mo'ljallangan bolalar sut aralashmalari, don mahsulotlari asosidagi bolalar ovqatlari va qo'shimcha oziq-ovqatlar, kichik yoshdagi bolalar uchun boshqa oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, go'daklar va chaqaloqlar uchun maxsus tibbiy maqsadlarga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
115	13.1.1	Boshlang'ich bolalar aralashmalari

116	13.1.2	Bolalarni keyingi oziqlantirish uchun aralashmalar
117	13.1.3	Don mahsulotlari asosidagi bolalar ovqati
118	13.1.4	Kichik yoshdagi bolalar uchun boshqa oziq-ovqat mahsulotlari. Bu toifaga 17-toifa bilan qamrab olingan ko'krak suti bilan oziqlanadigan bolalar va chaqaloqlar uchun oziq-ovqat qo'shimchalari kirmaydi.
119	13.1.5	Chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadli parhezli mahsulotlar Bu toifaga go'daklar va chaqaloqlarni ovqatlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan hamda tibbiyot muassasalarida va/yoki ulardan tashqarida shifokor nazorati ostida iste'mol qilish uchun mo'ljallangan maxsus tibbiy maqsadli oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
120	13.1.5.1	Chaqaloqlar uchun maxsus davolash maqsadidagi parhez mahsulotlari va chaqaloqlar uchun maxsus sut aralashmalari. Bu toifaga chaqaloqlar uchun maxsus tibbiy maqsadlarga mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari, shuningdek, maxsus aralashmalar kiradi. Bularga muddatidan oldin tug'ilgan chaqaloqlar uchun aralashmalar, shifoxonadan chiqish paytidagi aralashmalar, tug'ilganda vazni kam va juda kam bo'lgan chaqaloqlar uchun aralashmalar, hamda ona sutini boyituvchi qo'shimchalar kiradi.
121	13.1.5.2	Chaqaloqlar va go'daklar uchun maxsus tibbiy maqsadlarga mo'ljallangan parhez mahsulotlari. Bu toifaga chaqaloqlar va go'daklarni ovqatlantirish uchun maxsus ishlab chiqilgan va tibbiyot muassasalarida hamda ulardan tashqarida shifokor nazorati ostida iste'mol qilish uchun mo'ljallangan maxsus tibbiy maqsadli oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Masalan, modda almashinuvi yoki oshqozon-ichak kasalliklari, bitta yoki bir nechta oziq-ovqat mahsulotlariga allergiyasi yoki uni ko'tara olmasligi (masalan, sigir suti oqsiliga allergiya, oqsil so'rilishining buzilishi) bo'lgan chaqaloqlar va go'daklarni ovqatlantirish, shuningdek, umum qabul qilingan zond orqali oziqlantirish tartiblariga rioya qilish uchun mo'ljallangan mahsulotlar kiradi.
122	13.2	Maxsus tibbiy maqsadlar uchun parhez oziq-ovqat mahsulotlari (13.1.5-toifaga kiritilganlardan tashqari)
123	13.3	Butun kunlik ovqatlanish ratsionini yoki ma'lum bir ovqatlanishni (butun kunlik ovqatlanish ratsionini yoki uning bir qismini) almashtirish uchun mo'ljallangan vaznni nazorat qilish uchun oziq-ovqat mahsulotlari
124	13.4	Glyutenni ko'tara olmaydigan odamlar iste'mol qilishi mumkin bo'lgan mahsulotlar.

		Ushbu toifaga glyutenga chidamsiz odamlarning maxsus parhez ehtiyojlarini qondirish uchun maxsus tayyorlangan, ishlab chiqarilgan va/yoki qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
125	14	Ichimliklar Ushbu toifaga quyidagi ichimlik turlari kiradi: alkogolsiz (14.1) va alkogolli (14.2). 1-toifadagi oziq-ovqat mahsulotlari bu toifaga kirmaydi.
126	14.1	Alkogolsiz ichimliklar. Bu toifaga suv va gazlangan suv (14.1.1), meva va sabzavot sharbatlari (14.1.2), meva va sabzavot nektarlari (14.1.3), suv, sut, don mahsulotlari asosidagi xushbo‘ylantirilgan gazlangan va gazlanmagan ichimliklar, boshqa oziq-ovqat ingrediyentlari asosidagi ichimliklar (14.1.4), shuningdek 14.1.5 toifasiga kiradigan qahva, choy va damlamalar kiradi.
127	14.1.1	Suv, jumladan tabiiy mineral suv, buloq suvi va boshqa idishlarga quyilgan yoki qadoqlangan suvlar. Bu toifaga tabiiy mineral suvlar, buloq suvlari, oshxona suvlari va gazlangan suvlar kiradi.
128	14.1.2	Meva va sabzavot sharbatlari
129	14.1.3	Meva va sabzavot nektarlari hamda shunga o‘xshash oziq-ovqat mahsulotlari. Ushbu toifaga quyidagi aralashmalar ko‘rinishidagi meva nektarlari kiradi: - suv va/yoki shakar va/yoki asal va/yoki shirinlashtiruvchilar - 14.1.2 toifasiga kiruvchi mahsulotlar va/yoki meva pyuresi va/yoki konsentrlangan meva pyuresi va/yoki meva nektarlari, masalan, ushbu mahsulotlarning aralashmalari. Bu toifaga sabzavot nektarlari ham kiradi.
130	14.1.4	Xushbo‘ylashtirilgan ichimliklar. Bu toifaga xushbo‘ylangan gazli va gazsiz ichimliklar, meva siroplari, pyurelari va konsentratlari, jumladan, alkogolsiz ichimliklar, shuningdek, ularni tayyorlash uchun kukunlar kiradi. Ularga suv, sut mahsulotlari, don, urug‘, yong‘oq, sabzavot va mevalar asosidagi ichimliklar, ayniqsa “sport” “energiya beruvchi” yoki “elektrolitli” deb nomlanuvchi ichimliklar kiradi. Ular tarkibida fermentlar bo‘lishi mumkin. Ushbu toifaga 14.1.1, 14.1.2, 14.1.3, 14.1.5 va 12.9 toifalariga tegishli oziq-ovqat mahsulotlari kiritilmaydi.
131	14.1.5	Qahva, choy, giyohli va mevali damlamalar, sachratqi; choy, giyohli va mevali damlamalar hamda sachratqi ekstraktlari; choy, o‘simlik, mevali va donli damlamalar uchun

		qo‘shimchalar, shuningdek, ushbu mahsulotlardan tayyorlangan aralashmalar va tez eruvchi aralashmalar. Kukun holida bo‘lgan ichimliklar 14.1.4-toifaga kiritilgan. Qahva va choy ichimliklari, shuningdek quruq sut bilan aralashtirilgan shokoladli ichimliklar 14.1.4 toifasiga kiruvchi tegishli oziq-ovqat mahsulotlari/ichimliklar qatoriga kiritilgan.
132	14.1.5.1	Qahva va qahva ekstraktlari. Ushbu toifaga (eruvchan) qahva ekstrakti yoki eruvchan qahva olish uchun qayta ishlangan qahva donlari (asosan endospermdan iborat bo‘lgan qahva o‘simligi urug‘lari) kiradi. Ushbu toifaga xushbo‘ylantirgichsiz kukun yoki granula ko‘rinishidagi eriydigan qahva, shuningdek, iste’molga tayyor kristallar va kukun ko‘rinishidagi qahva (ular ham eriydigan qahva deb ataladi) hamda xushbo‘ylantirgichsiz konsentrlangan suyuq ko‘rinishdagi eriydigan qahva kiradi. Bu toifaga bankadagi suyuq qahva ham tegishli.
133	14.1.5.2	Boshqalar Ushbu toifaga choy, o‘simlik va meva damlamalari, xushbo‘ylantirilgan choylar, xushbo‘ylantirilgan eriydigan qahva, xushbo‘ylantirilgan qovurilgan qahva, qahva o‘rmini bosuvchilar, qahva aralashmalari (2 ta 1 da yoki 3 ta 1 da) va "issiq ichimliklar" uchun aralashmalar (masalan, kapuchino issiq ichimligini tayyorlash uchun kukun) kiradi. “Momaqaymoq qahvasi” - momaqaymoq ildizidan tayyorlanadigan qahva o‘rmini bosuvchi ichimlikdir. Qovurilgan momaqaymoq ildizi bo‘laklari va undan tayyorlangan ichimlik ko‘rinishi hamda ta’mi jihatidan qahvaga biroz o‘xshaydi. Qahva o‘rmini bosuvchilarning bir necha turlari mavjud: arpa, javdar, sachratqi, anjir aralashmasi; qovurilgan arpa, arpa solodi, sachratqi va javdar aralashmasi; qovurilgan arpa, qovurilgan arpa solodi va qovurilgan sachratqi aralashmasi; arpa, sachratqi, arpa solodi, anjir va qizilcha ekstraktlari aralashmasi; postum (qovurilgan bug‘doy kepagi, bug‘doy va qora patokadan tayyorlangan), solod asosidagi xushbo‘y ichimliklar va boshqalar. Qahva aralashmalari va "issiq ichimliklar" uchun aralashmalar (masalan, "kapuchino" issiq ichimligini tayyorlash uchun kukun) - oldindan tayyorlangan kukunsimon tez eriydigan qahva bo‘lib, unga qaymoq yoki qaymoqqa o‘xshash mahsulotlar, shakar va/yoki sut/kakao, karamel, vanil ekstraktlari, xushbo‘ylovchi moddalar, tuz, likyorlar va boshqa ingredientlar qo‘shilgan. Uni suyuqlik, masalan, qaynoq yoki sovuq ichimlik suvi qo‘shib tayyorlash mumkin. Bu turkumga uy sharoitida ichimliklar tayyorlash uchun kukunlar, issiq ichimliklar tayyorlash uchun kukunlar, savdo avtomatlari uchun qahva asosidagi ichimliklar,

		shokolad/kapuchino ta'mli xushbo'y tez eriydigan ichimliklar va xushbo'ylangan tez eriydigan kapuchino kiradi. Banka/shishalardagi qahva asosidagi ichimliklar - bu supermarketlar va yaqin atrofdagi do'konlarda yoki savdo avtomatlarida sotiladigan iste'molga tayyor oziq-ovqat mahsulotlaridir. Ularni issiq yoki sovuq holda sotish mumkin (masalan, kapuchino turidagi sovutilgan banka ichimliklari).
134	14.2	Alkogolli ichimliklar, shu jumladan alkogolsiz va kam alkogolli ichimliklar. Shunga o'xshash alkogolsiz va kam alkogolli ichimliklar alkogolli ichimliklar bilan bir xil toifaga kiradi. Bu toifaga pivo va solod ichimliklari, vino, sidr va perri, meva vinolari va uy likyorlari, asal asosidagi alkogolli ichimliklar va xushbo'ylantirilgan vino mahsulotlari, shuningdek, ularga o'xshash alkogolsiz va kam alkogolli ichimliklar kiradi.
135	14.2.1	Pivo va solod ichimliklar. Inson iste'moli uchun mo'ljallangan alkogolli ichimliklar bo'lib, don mahsulotlari, boshqa kraxmal manbalari va/yoki ma'lum shakarlar, xmel, achitqi va ichimlik suvidan tayyorlanadi (shirin qilingan). Misollar: el, to'q rangli pivo, oq pivo, pilsner, lager, och rangli pivo, solodli likyor, porter, staut, arpa pivosi.
136	14.2.2	Uzum sharoblari va uzum sharbatidan tayyorlangan boshqa mahsulotlar. Bu toifaga quyidagilar kiradi: vino, bijg'ish jarayonidagi yosh vino, likyor vinosi, ko'pikli vino, gazlangan ko'pikli vino, yarim ko'pikli vino, gazlangan yarim ko'pikli vino, qisman achitilgan uzum sharbati, mayizdan olingan qisman achitilgan uzum sharbati, konsentrlangan uzum sharbati, tozalangan konsentrlangan uzum sharbati, mayiz vinosi, yetilgan uzumdan tayyorlangan vino va vino sirkasi. Ushbu toifaga 14.1.2 toifasidagi uzum sharbati kirmaydi.
137	14.2.3	Sidr va perri. Olmadan (sidr) va nokdan (nok sidri) tayyorlangan meva sharoblari.
138	14.2.4	Mevali vinolar va boshqa turdagi xom ashyolardan tayyorlangan vinolar. Mevalar va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan, shu jumladan don ekinlaridan (masalan, guruchdan) tayyorlangan vinolarni o'z ichiga oladi, ammo oddiy uzum vinosi (14.2.2-toifasi) va likyorli ichimliklar (14.2.5-toifasi) bu toifaga kirmaydi. Bu vinolar tinch yoki ko'pikli bo'lishi mumkin.
139	14.2.5	Alkogolli asal ichimliklari

		Bijg'itilgan asal, solod va ziravorlar yoki faqat asaldan tayyorlangan alkogolli ichimlik. Asal sharobini ham o'z ichiga oladi.
140	14.2.6	Kuchli spirtli ichimliklar Misollar: rom, viski, don va uzum spirtli ichimliklari, brendi yoki uzum brendilari; meva spirtli ichimliklari, aroq, jin, pastis, likyor. Ularning haqiqiy minimal quvvati hajm bo'yicha 15% alkogolni tashkil etadi.
141	14.2.7	Xushbo'ylashtirilgan sharob mahsulotlari Ushbu toifaga quyidagi uch turkum kiradi: "xushbo'ylashtirilgan sharoblar", "sharob asosidagi xushbo'ylashtirilgan ichimliklar" va "sharob mahsulotlari asosidagi xushbo'ylashtirilgan kokteyllar", shuningdek, alkogolsiz va kam miqdorda alkogol tutgan o'xshash ichimliklar.
142	14.2.7.1	Xushbo'ylashtirilgan sharoblar Bir yoki bir nechta vino mahsulotlaridan, xususan uzum sharbati va/yoki bijg'ish jarayonida olingan spirt qo'shilgan uzum sharbatidan tayyorlangan va xushbo'ylashtirilgan. Tarkibidagi alkogol miqdori hajmi bo'yicha kamida 14,5%, maksimal haqiqiy quvvati esa hajmi bo'yicha 22% dan kam.
143	14.2.7.2	Vino asosidagi xushbo'ylashtirilgan ichimliklar. Bir yoki bir nechta sharob navlaridan tayyorlangan, uzum sharbati va/yoki uzum sharbati qo'shilishi mumkin bo'lgan, qisman bijg'itilgan, xushbo'ylashtirilgan va hajmi bo'yicha alkogolning haqiqiy kuchi 7% yoki undan yuqori, ammo 14,5% dan kam bo'lgan ichimlik.
144	14.2.7.3	Vino mahsulotlari asosidagi xushbo'ylashtirilgan kokteyllar. Vino va/yoki uzum sharbatidan olingan, hajmi bo'yicha alkogolning haqiqiy kuchi 7% dan kam bo'lgan xushbo'ylashtirilgan ichimlik.
145	14.2.8	Boshqa alkogolli ichimliklar, jumladan alkogolli va alkogolsiz ichimliklar aralashmalari, shuningdek hajmi bo'yicha spirt kuchi 15% dan kam bo'lgan distillangan spirt asosidagi alkogolli ichimliklar. 14.2.1-14.2.7 toifalari bilan qamrab olinmagan barcha boshqa alkogolli ichimliklarni, masalan, tarkibida 15% dan kam alkogol bo'lgan alkogolsiz ichimliklar bilan alkogolli ichimliklar aralashmalarini o'z ichiga oladi. Bu turkumga uzum asosidagi spirt kuchi (% hajm/hajm) 4,5 dan 5,5 gacha bo'lgan bijg'itilgan ichimlik kiradi, bu uzum shirasini bijg'itish yo'li bilan tayyorlangan ko'pikli alkogolli ichimlik hisoblanadi.
146	15	Iste'molga tayyor gazaklar va yengil taomlar.

		Bu toifaga kartoshka, don, un yoki kraxmal asosidagi gazaklar, shuningdek, qayta ishlangan yong'oqlar kiradi.
147	15.1	Kartoshka, don, un va kraxmal asosidagi gazaklar. Ushbu toifada kraxmal donli, ildizmevali va tuganakli, dukkakli o'simliklarda mavjud. Barcha tuzlamalar tarkibiga xushbo'y moddalar qo'shilgan oddiy marinadlangan gazaklarni o'z ichiga oladi. Misol tariqasida kartoshka chipslarini, tuzlangan popkornni, krendellar va krekerlarni keltirish mumkin.
148	15.2	Qayta ishlangan yong'oqlar. Bu toifaga tozalangan yong'oqlar va shunga o'xshash ishlov berilgan urug'lar, masalan, gazak sifatida iste'mol qilinadigan kungaboqar urug'lari kiradi. Ularga tozalangan yoki tozalanmagan, tuzlangan yoki tuzlanmagan, quruq qovurish, pishirish, marinadlash yoki qaynatish yo'li bilan ishlov berilgan barcha turdagi yong'oqlar kiradi. Shuningdek, bu toifaga yogurt, tvorog va asal bilan qoplangan yong'oqlar, quritilgan mevalar hamda yong'oq-donli gazaklar (masalan, "aralashmalar") ham kiradi.
149	16	Shirinliklar, 1, 3 va 4-toifadagi mahsulotlar bundan mustasno. Xushbo'ylashtirilgan va shirin ta'mga ega bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini o'z ichiga oladi. Ularga sut, yog', meva-sabzavot, don, tuxum mahsulotlari va suv asosidagi oziq-ovqatlar kiradi Ushbu toifaga 1-toifaga kiradigan "Sut mahsulotlari va shunga o'xshash oziq-ovqat mahsulotlari", 3-toifaga kiradigan "Yeyishli muz", 4-toifaga kiradigan "Meva va sabzavotlar" yoki 07.2-toifaga kiruvchi oziq-ovqat mahsulotlari kirmaydi.
150	17	Oziq-ovqatga parhez qo'shimchalari. Ushbu toifaga oddiy ovqatlanish ratsionini to'ldirish uchun mo'ljallangan va oziq moddalarning yoki oziqlantiruvchi yoxud fiziologik ta'sirga ega bo'lgan boshqa moddalarning konsentratsiyalangan manbalari hisoblanadigan, alohida yoki kombinatsiyada, dozalangan shakllarda, xususan, kapsulalar, pastilkalar, tabletka va boshqa shunga o'xshash shakllarda, kukun solingan paketlarda, suyuqlik solingan ampulalarda, tomchilarni dozalash uchun flakonlarda va boshqa shunga o'xshash shakllarda kichik dozalangan miqdorlarda qabul qilish uchun mo'ljallangan suyuqlik va kukunlar ko'rinishida sotiladigan oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.
151	17.1	Qattiq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqatga parhez qo'shimchalari, chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun parhez qo'shimchalaridan tashqari

		Ushbu toifaga tabletka, kukun, granula va chaynash tabletkalari shaklida bo'lgan ovqatlanish qo'shimchalari kiradi. Ularga, xususan, tabletkalar, pastilkalar va og'iz orqali qabul qilinadigan boshqa qattiq bir martalik dori shakllari, jumladan parchalanadigan granulalar, og'iz bo'shlig'ida eriydigan preparatlar, og'izda tarqaladigan plyonkalar, kukunlar, granulalar yoki iste'moldan oldin maydalash yoki suyuqlikda eritish uchun mo'ljallangan tabletkalar (vishillovchi tabletkalar) kiradi. Shuningdek, kapsula shaklida ishlab chiqariladigan (masalan, baliq yog'i qo'shilgan) va sotilish paytida iste'mol qilishga mo'ljallangan ovqatlanish qo'shimchalari ham bunga kiradi. Bularning barchasi oz miqdorda qabul qilish uchun mo'ljallangan. Tabletka shakli: presslash yoki ekstruziya va qoliplash kabi boshqa usullar orqali hosil qilingan bir xil hajmdagi qattiq zarrachalar massasidan iborat. Bularga stimullovchi tabletkalar ham kiradi. Vishillovchi tabletkalardan tashqari, tijorat mahsuloti sifatida bevosita iste'mol qilinmaydigan har qanday shaklni o'z ichiga olmaydi (ya'ni, ovqatlanish qo'shimchasi iste'moldan oldin suv yoki boshqa har qanday suyuqlikda eritilgandan so'ng qabul qilinadi). Chaynash shakli: masalan, chaynash kapsulalari, jele ko'rinishidagi qo'shimchalar va boshqa chaynash shakllari. Bevosita iste'mol qilinmaydigan har qanday shaklni o'z ichiga olmaydi (ya'ni ovqatlanish qo'shimchasi iste'moldan oldin suv yoki boshqa har qanday suyuqlikda eritilmasdan qabul qilinadi).
152	17.2	Suyuq shaklda yetkazib beriladigan oziq-ovqatga parhez qo'shimchalari, chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun parhez qo'shimchalari bundan mustasno. Bular qatoriga, jumladan, suyuqlik solingan ampulalar, tomizgichli flakonlar va boshqa shunga o'xshash suyuq shakllar kiradi. Sirop shaklida sotiladigan parhez ovqat qo'shimchalari ham shu toifaga mansub. Ularning barchasi oz miqdorda, me'yorlangan holda iste'mol qilishga mo'ljallangan. Sotiladigan shaklda bevosita iste'mol qilinmaydigan siropning har qanday shakli bundan mustasno (ya'ni, sirop shaklidagi oziq-ovqat qo'shimchasi iste'mol qilishdan oldin suvda yoki boshqa har qanday suyuqlikda eritilmasdan qabul qilinadi).
153	18	1-17 toifalarga kiritilmagan qayta ishlangan oziq-ovqat mahsulotlari, chaqaloqlar va kichik yoshdagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari bundan mustasno.

”.

Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qo‘shimchalarini tamg‘alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarga 4-ILOVA

“Oziq-ovqat qo‘shimchalariga va ulardan foydalanishga hamda oziq-ovqat qo‘shimchalarini tamg‘alashga doir sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga (0098-25-son SanQvaN) 5-ILOVA

1-bob. O‘tish tamoyili bo‘yicha tarkibida oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘lishi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxati

1-jadval O‘tish tamoyili bo‘yicha tarkibida oziq-ovqat qo‘shimchalari bo‘lishi taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari ro‘yxati (bundan bo‘yoqlar mustasno)

№	Oziq-ovqat mahsulotlari
1	Ishlov berilmagan oziq-ovqat mahsulotlari (yarim tayyor go‘sht mahsulotlari bundan mustasno)
2	Asal
3	Emulgirlanmagan hayvon va o‘simlik yog‘lari hamda moylari
4	Sariyog‘
5	Pasterizatsiyalangan va sterilizatsiyalangan xushbo‘ylashtirilmagan sut, shu jumladan, ultrapasterizatsiyalangan sut va pasterizatsiyalangan xushbo‘ylashtirilmagan qaymoq (yog‘ miqdori kam bo‘lgan qaymoq bundan mustasno)
6	Xushbo‘ylashtirilmagan va fermentlangandan keyin termik ishlov berilmagan sut-qatiq (fermentlangan sut) mahsulotlari
7	Xushbo‘ylashtirilmagan paxta (buttermilk) — achitilgan sut zardobi (sterilizatsiyalangan bundan mustasno)
8	Qadoqlangan tabiiy mineral suv, buloq suvi va boshqa qadoqlangan ichimlik suvlari
9	Qahva (eruvchan xushbo‘ylashtirilgan qahva bundan mustasno) va qahva ekstraktlari
10	Xushbo‘ylashtirilmagan yaproqli choy
11	Shakarlar
12	Quruq makaron mahsulotlari – xamir (glyutensiz makaron mahsulotlari va kam oqsilli parhezlar uchun makaron mahsulotlari bundan mustasno)
13	Go‘daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun oziq-ovqat mahsulotlari, jumladan emizikli va kichik yoshdagi bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadlarga mo‘ljallangan oziq-ovqat mahsulotlari (ushbu sanitariya

qoidalarining 3-ilovasida ko'rsatilgan oziq-ovqat mahsulotlari toifalari bo'yicha kiritilgan oziq-ovqat qo'shimchalari bundan mustasno)

2-jadval O'tish tamoyili asosida bo'yoqlar mavjudligiga yo'l qo'yilmaydigan oziq-ovqat mahsulotlari

№	Oziq-ovqat mahsulotlari
1	Ishlov berilmagan oziq-ovqat mahsulotlari
2	Qadoqlangan ichimlik suvi
3	Sut, to'liq yog'li sut, yarim yog'sizlantirilgan va yog'sizlantirilgan sut, pasterizatsiyalangan yoki sterilizatsiyalangan, shu jumladan ultrapasterizatsiyalangan sut (ta'mi o'zgartirilmagan)
4	Sut qo'shilgan shokoladli ichimligi
5	Ta'mi o'zgartirilmagan achitilgan (nordon) sut
6	Ta'mi o'zgartirilmagan konservalangan sut mahsulotlari
7	Paxta (buttermilk) — achitilgan sut zardobi (ta'mi o'zgartirilmagan)
8	Qaymoq va quruq qaymoq (ta'mi o'zgartirilmagan)
9	Hayvon va o'simlik moylari hamda yog'lari
10	Yetilgan va yetilmagan pishloqlar (ta'mi o'zgartirilmagan)
11	Qo'y yoki echki sutidan olingan yog'
12	Tuxum va uni qayta ishlash mahsulotlari
13	Un va donni qayta ishlashning boshqa mahsulotlari, shuningdek kraxmal
14	Non va non mahsulotlari
15	Makaron mahsulotlari va kartoshkali Nyokki (gnocchi) - kartoshka, un va tuxum qilinadigan kichik, oval shakldagi mahsulotlar
16	Shakar, shu jumladan barcha monosaxaridlar va disaxaridlar
17	Pomidor pastasi, konservalangan pomidorlar <u>va</u> bankadagi pomidorlar
18	Pomidor asosidagi souslar
19	Meva va sabzavot sharbatlari, nektarlari
20	Konservalangan, quritilgan yoki qayta ishlangan mevalar, sabzavotlar (jumladan, kartoshka) va qo'ziqorinlar
21	Ekstra jem, ekstra jele va kashtan pyuresi
22	Baliq, mollyuskalar, qisqichbaqasimonlar, go'sht, parranda go'shti va yovvoyi hayvon go'shti, shuningdek ularidan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari (ushbu ingredientlarni o'z ichiga olgan tayyor taomlar

	bundan mustasno)
23	Shokolad mahsulotlaridagi kakao mahsulotlari va shokolad tarkibiy qismlari
24	Qovurilgan qahva, choy, o'simlik va meva damlamalari, sikoriy; choy va damlamalar uchun don aralashmalari, shuningdek ushbu mahsulotlarning aralashmalari va tez eriydigan aralashmalar
25	Tuz, tuz o'rini bosuvchilar, ziravorlar va ularning aralashmalari
26	Vinochilik mahsulotlari
27	Kuchli spirtli ichimliklar, mevali spirtli ichimliklar, matseratsiya va distillatsiya orqali olingan, shuningdek spirtli ichimlik turi London Djin
28	Vino va mevalar asosidagi an'anaviy alkogolli ichimliklar
29	Vino sirkasi
30	Bolalar ovqati, shu jumladan go'daklar va kichik yoshdagi bolalar uchun maxsus tibbiy maqsadlarga mo'ljallangan mahsulotlar
31	Asal
32	Solod va solod mahsulotlari

3-bob. Oziq-ovqat qo'shimchalari, shu jumladan oziq-ovqat fermentlari tashuvchilari*

E-raqami	Nomi	Miqdori	Ichimliklardan tashqari tayyor oziq-ovqatdagi miqdori	Ichimliklardagi miqdori	Tashuvchi sifatida foydalanish mumkinligi
E 170	Kalsiy karbonati	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 200	Sorbin kislotasi	REMD=20000 mg/kg (alohida yoki birgalikda,	REMD=20 mg/kg	REMD=10 mg/l	yo'q
E 202	Kaliy sorbat	erkin kislotaga qayta hisoblaganda)			

E 210	Benzoy kislotasi	REMD=5000 mg/kg (alohida yoki birgalikda, erkin kislotaga qayta	REMD=1,7 mg/kg Shirdon fermenti ishlatilgan	REMD=0,85 mg/l zardob asosidagi ichimliklarda	yo‘q
E 211	Natriy benzoat	hisoblaganda) Shirdon fermentida REMD=12 000 mg/kg	pishloqda REMD=5 mg/kg	shirdon fermenti ishlatilganda REMD=2,5 mg/l	
E 214	Etil-p-gidroksibenzoat	REMD=2000 mg/kg (alohida	REMD=2 mg/kg	REMD=1 mg/l	yo‘q
E 215	Natriy etil-p-gidroksibenzoat	yoki birgalikda,			
E 218	Metil p-gidroksibenzoat	erkin kislotaga			
E 219	Natriy metil p- gidroksibenzoat	nisbatan hisoblaganda)			
E 220	Oltingugurt dioksidi	REMD=2000 mg/kg (alohida yoki birgalikda, SO ₂ sifatida	REMD=2 mg/kg	REMD=2 mg/l	yo‘q
E 221	Natriy sulfit	ifodalangan); faqat pivo tayyorlash uchun oziq-ovqat			
E 222	Natriy gidrosulfit	fermentlarida REMD=5000 mg/kg; faqat arpa beta-			
E 223	Natriy metabisulfit	amilazasi uchun REMD=6000 mg/kg;			

E 224	Kaliy metabisulfit	faqat qattiq shakldagi papain uchun REMD=10000			
E 250	Natriy nitrit	REMD=500 mg/kg	REMD=0,01 mg/kg	Foydasiz	yo‘q
E 260	Sirka kislotasi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	ha
E 261	Kaliy atsetatlari	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yo‘q
E 262	Natriy atsetatlari	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yo‘q
E 263	Kalsiy atsetat	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yo‘q
E 270	Sut kislotasi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	ha
E 281	Natriy propionat	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	yeterli miqdor (quantum satis) tamoyili qo‘llaniladi	REMD=50 mg/l	yo‘q

E 290	Karbonat angidrid	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 296	Olma kislotasi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 300	Askorbin kislotasi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 301	Natriy askorbat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 302	Kalsiy askorbat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 304	Askorbin kislotasining yog' kislotali efirlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 306	Tokoferolga boy ekstrakt	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 307	Alfa-tokoferol	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	yo'q

		tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	
E 308	Gamma-tokoferol	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 309	Delta-tokoferol	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 322	Letsitinlar	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 325	Natriy laktat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 326	Kaliy laktat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 327	Kalsiy laktat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 330	Limon kislotasi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha

E 331	Natriy sitratlar	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 332	Kaliy sitratlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 333	Kalsiy sitratlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 350	Natriy malatlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 338	Fosfor kislotasi	REMD=10000 mg/kg (P_2O_5 ga qayta hisoblanganda)	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 339	Natriy fosfatlari	REMD=50000	yetarli miqdor	yetarli miqdor	ha
E 340	Kaliy fosfatlari	mg/kg (alohida	(quantum satis)	(quantum satis)	
E 341	Kalsiy fosfatlari	yoki birgalikda, P_2O_5 ga qayta	tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	
E 343	Magniy fosfatlari	hisoblanganda)			
E 351	Kaliy malati	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 352	Kalsiy malatlari	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	ha

		tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	
E 380	Triammoniy sitrat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 400	Algin kislotasi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 401	Natriy alginat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 402	Kaliy alginat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 403	Ammoniy alginat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 404	Kalsiy alginat	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 406	Agar	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha

E 407	Karraginan	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 407a	Ishlov berilgan evxema suv o'tlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 410	Xarnub daraxti mevasi yelimi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 412	Guar yelimi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 413	Tragakant	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 414	Akatsiya yelimi (gummiarabik)	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 415	Ksantan yelimi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 417	Tara yelimi	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	ha

		tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	
E 418	Gellan yelimi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 420	Sorbit	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 421	Mannit	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 422	Glitserin	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 440	Pektinlar	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 450	Difosfatlar	REMD=50000 mg/kg (alohida	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	yo'q
E 451	Trifosfatlar	yoki kombinatsiyada, P ₂ O ₅	tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	
E 452	Polifosfatlar	ko'rinishida ifodalangan)			
E 460	Sellyuloza	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	yetarli miqdor (quantum satis)	ha

		tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	tamoyili qo'llaniladi	
E 461	Metilsellyuloza	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 462	Etilsellyuloza	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 463	Gidroksipropilsellyuloza	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 464	Gidroksipropilmetilsellyuloza	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 465	Etilmetilsellyuloza	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q
E 466	Natriy karboksimetilsellyuloza, Sellyuloza yelimi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	ha
E 469	Fermentativ gidrolizlangan karboksimetilsellyuloza	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qo'llaniladi	yo'q

E 470a	Yogʻ kislotalarining natriy, kaliy va kalsiy tuzlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yoʻq
E 470b	Yogʻ kislotalarining magniy tuzlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yoʻq
E 471	Yogʻ kislotalarining mono- va diglitseridlari	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	yetarli miqdor (quantum satis) tamoyili qoʻllaniladi	ha
